

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **PEDAGOGIKA**

**Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** **p.f.d.,prof. SH. Abdullayeva**  
**A.Turayev**

**Taqrizchilar:** **p.f.d., prof. X.Ibragimov** – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.  
**p.f.d., prof. B.Xodjayev** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti.

**Xorijiy ekspert:** **p.f.d., prof. Yumi Lee** – Graduate School of Dankook University.

**O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
( “30”-noyabr 2024-yildagi 4-sonli bayonomaga)**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>29</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATEALLARI .....</b>	<b>104</b>
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>128</b>
<b>VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>145</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratasiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘ylgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldaggi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarorida tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish; pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik ta’limga raqamli

texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruva faoliyatini takomillashtirish; pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish kabi pedagogika ta'lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Shuningdek, zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzARB masalalardan biridir.

Ushbu dasturda didaktika fan sifatida pedagogikaning tarkibiy qismi ekanligini tahlil qilish, ta'lim maqsadi va mazmunini aniqlash, ta'lim (o'qitish) shakllari, metodlari va texnologiyalarining didkatik imkoniyatlarini tahlil qilish, axborot-ta'lim muhitidagi o'quv jarayoni va uning komponentlarini tahlil qilish, oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilish, tinglovchilarida O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili asosida Uchinchi Rennesans haqida ma'lumotga ega bo'lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirish bayon etilgan.

### *Modulning maqsadi va vazifalari*

**Modulning maqsadi:** Pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini zamonaviy oliy ta'lim didaktikasiga oid yangi bilimlar, ko'nikmalar hamda malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

#### **Modulning vazifalari:**

- didaktika fan sifatida pedagogikaning tarkibiy qismi ekanligini tahlil qilish;
- ta'lim maqsadi va mazmunini aniqlash;
- ta'lim (o'qitish) shakllari, metodlari va texnologiyalarining didkatik imkoniyatlarini tahlil qilish;
- axborot-ta'lim muhitidagi o'quv jarayoni va uning komponentlarini tahlil qilish;
- oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilish;
- tinglovchilarida O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili asosida Uchinchi Rennesans haqida ma'lumotga ega bo'lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

## ***Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar***

"Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi" modulini o'zlashtirish jarayonida:

### **Tinglovchi:**

- Didaktik bilimlarni shakllantirishi va rivojlanirishini;
- didaktikaning asosiy funksiyalarini;
- ta'lim jarayoni didaktikaning asosiy kategoriyasi sifatida ekanligini;
- didaktikaning rivojlanish tendensiyalarini;
- ta'lim mazmuni konsepsiysi, didaktik prinsiplar va ularning mazmunini;
  - ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar, asosiy didaktik yondashuvlar haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;
  - Dars (o'quv mashg'ulot)ta'limning asosiy shakli sifatida o'quv mashg'ulotlarni loyihalash;
  - pedagogik jarayonda ta'lim metodlari va vositalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish;
  - metodlar klassifikatsiyasi va innovatsion (istiqbolli) ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish;
  - axborot ta'lim makonida innovatsion ta'lim muhitini yaratish;
  - axborot ta'lim muhitida didaktik prinsiplar va ularning mazmunidan foydalanish;
  - zamonaviy ta'lim shakllari (masofaviy, aralash) shakllari va metodlari hamda innovatsion ta'lim amaliyotini tashkil etish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;
  - O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili asosida pedagogik faoliyatni tashkil qilish;
  - Mamlakatimizda Uchinchi Rennesans haqida ma'lumotga ega bo'lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish kompetensiyalarini egallashi lozim.

### ***Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar***

"Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blisso'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhrilar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

*Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi*

"Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Kasbiy kompetensiyalarini rivojlanirish", "Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish", "Talabalar bilimini baholash" hamda

“Pedagogikaning dolzARB muammolari va rivojlanish tendensiyalari” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### ***Modulning oliv ta’limdagi o‘rnI***

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

### ***MODUL BO‘YICH A SOATLAR TAQSIMOTI***

№	<b>Modul mavzulari</b>	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ ulot
1.	<b>Didaktika fan sifatida</b>	4	2	2
2.	<b>Ta’lim maqsadi va mazmuni</b>	4	2	2
3.	<b>Ta’lim (o‘qitish) shakllari, metodlari va texnologiyalari</b>	6	2	4
4.	<b>Axborot-ta’lim muhitidagi o‘quv jarayoni</b>	2		2
5.	<b>Oliy ta’lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari</b>	4	2	2
6.	<b>O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi</b>	4	2	2
<b>Jami:</b>		<b>24</b>	<b>10</b>	<b>14</b>

### **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-Mavzu: Didaktika fan sifatida.**

Didaktik bilimlarni shakllantirishi va rivojlantirishi, didaktikaning asosiy funksiyalari, ta’lim jarayoni didaktikaning asosiy kategoriyasi sifatida, didaktikaning rivojlanish tendensiyalari.

#### **2-mavzu. Ta’lim maqsadi va mazmuni.**

Ta’lim mazmuni konsepsiysi, didaktik prinsiplar va ularning mazmuni, ta’lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar, asosiy didaktik yondashuvlar.

#### **3-mavzu. Ta’lim (o‘qitish) shakllari, metodlari va texnologiyalari.**

Dars (o‘quv mashg‘ulot)ta’limning asosiy shakli sifatida, pedagogik jarayonda ta’lim metodlari va vositalarining didaktik imkoniyatlari, metodlar klassifikatsiyasi, innovatsion (istiqbolli) ta’lim texnologiyalari.

#### **4-ma’ruza: Oliy ta’lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari.**

Oliy ta’lim didaktikasining asosiy kategoriyalari, uning asosiy tamoyillari va ilmiy-tadqiqot metodlari

#### **5-ma’ruza: O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi.**

O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili, pedagogik faoliyatni tashkil qilish malakasi, Mamlakatimizda Uchinchi Rennesans haqida ma’lumotga ega bo‘lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish

### **AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

#### **1-amaliy mashg‘ulot: Didaktika fan sifatida.**

Didaktik bilimlarni shakllantirishi va rivojlantirishi, didaktikaning asosiy funksiyalari, ta’lim jarayoni didaktikaning asosiy kategoriyasi sifatida, didaktikaning rivojlanish tendensiyalari.

#### **2-amaliy mashg‘ulot: Ta’lim maqsadi va mazmuni.**

Ta’lim mazmuni konsepsiysi, didaktik prinsiplar va ularning mazmuni, ta’lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar, asosiy didaktik yondashuvlar.

#### **3-amaliy mashg‘ulot. Ta’lim (o‘qitish) shakllari, metodlari va texnologiyalari.**

Dars (o‘quv mashg‘ulot) ta’limning asosiy shakli sifatida, pedagogik jarayonda ta’lim metodlari va vositalarining didaktik imkoniyatlari, metodlar klassifikatsiyasi, innovatsion (istiqbolli) ta’lim texnologiyalari.

#### **4-amaliy mashg‘ulot. Axborot-ta’lim muhitidagi o‘quv jarayoni.**

Axborot ta’lim makonida ta’lim muhiti, axborot ta’lim muhitida didaktik prinsiplar va ularning mazmuni, zamonaviy ta’lim shakllari (masofaviy, aralash) shakllari va metodlari, innovatsion ta’lim amaliyoti.

#### **5-amaliy mashg‘ulot. Oliy ta’lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari.**

Oliy ta’lim didaktikasining asosiy kategoriyalari, uning asosiy tamoyillari va ilmiy-tadqiqot metodlari

## **6-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi.**

O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili, pedagogik faoliyatni tashkil qilish malakasi, Mamlakatimizda Uchinchi Rennesans haqida ma’lumotga ega bo‘lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish

### **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.




### **“Kichik guruhlarda ishslash” metodi**

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalg' etadi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo'naliishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni

tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.


4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagи “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o’tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o’tkazish tuzilmasi berilgan.



#### Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



#### “FSMU” metodi

“FSMU” – (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o’tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda

shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
  - ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



**FSMU** tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “Pedagogika fanidan davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



### “XULOSALASH” (Rezyuml, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiлади. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarining mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg‘ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlар bilan to‘ldiriladi va mavzu

#### Namuna:

##### Pedagogika fanidan Davlat ta’lim standarti

Sobiq standart	Yangi standart
----------------	----------------

afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>			



## “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	. kuchli tomonlari
W – (weakness)	. zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	. imkoniyatlari
T – (threat)	. to'siqlar

**Namuna:** Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Pedagogika fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Pedagogika fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Pedagogika fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

S	Oddiy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
W	O'qituvchi asosan a'luchi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
O	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi,

		g‘oyalar tug‘ilishi mumkin
T	O‘qituvchi uchun asosiy to‘sinq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari



## “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



## “Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhabatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O‘qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog‘oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo‘yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### Madaniyat

moddiy madaniyat	ma’naviy madaniyat



### “Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g‘oyalarni, qarashlarni o‘zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo‘yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

**O‘qituvchi yechimi topilishi lozim bo‘lgan mavzu (masala)ni aniqlaydi**

**Tinglovchilar mavzu va metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi**

**Tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi**

**Guruhlari o‘zlariga berilgan topshiriqni bajaradi**

**Guruhlarning yechimni guruh jamoasi hukmiga havola etadi**

**Guruhlarning yechimlari guruh jamoasida muhokama qilinadi**

<b>O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar</b>	<b>Muhim belgilar, tavsiflar</b>		
	<b>1-belgi (tavsif)</b>	<b>2-belgi (tavsif)</b>	<b>3- belgi (tavsif)</b>
1-jihat			
2-jihat			
...			

**Namuna:**

<b>Pedagogika darslarida interfaol ta’lim usullaridan foydalanishning jihatlari</b>	<b>Muhim belgilar, tavsiflar</b>		
	<b>1-belgi (tavsif)</b>	<b>2-belgi (tavsif)</b>	<b>3-belgi (tavsif)</b>
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			



**“Tushunchalar” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldag'i tayanch tushunchalar tahlili”.

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shi mcha ma'lumot
Odam ontogenezi		
Shaxs ontogenezi		
Shaxs kamoloti		
Ma'rifat		
Antropologiya		
Innovatsiya		
Kontseptsiya		
Paradigma		
Integratsiya		
Strategiya		

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

### “Muammoli vaziyat” metodi

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



#### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan bирgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



## “T-jadval” texnologiya

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

**Agar ular yozilgan fikrga qo‘silsalar, birinchi ustunda “+”, aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo‘yadilar.**

**Izoh: O‘qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;

- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi

### “T-jadval” texnologiyasi


O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)	
+ (ha, ijobji) afzalligi (yutug‘i)	- (yo‘q, salbiy) kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

### “Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”

Afzalliklari	Kamchiliklari
“Qaytar aloqa”ning ta’minlanishi	ko‘p vaqt talab etilishi

motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi	tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o‘tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob’ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi	o‘qituvchining o‘zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishining talab etilishi
o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo‘lishi
mustaqil fikrlash qobiliyatiningoshishi	qaytar aloqaning ta’minlanmasligi

## XULOSA



### Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

Sanalar – .....asrlar.

Tasvirlashga nisbatan bo‘lgan qiziqish insonlarni qadimdan o‘ziga jalg etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o‘zaro muloqot qilish, so‘zlashish uchun zarur bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shug‘ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ov qilganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo‘llarini kuzatib, qoya va g‘orlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o‘tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatları rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari o‘ziga hos dastlabki kompozitsiya yechimiga ega tarzda aks eta boshlagan.

Yil, sana	Sodir bo‘lgan voqelik

### “Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



## “Hamkorlikda o‘qitish” metodi

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko‘proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg‘ulot o‘tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo‘lsa, tinglovchilarining o‘rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o‘qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o‘qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko‘maklashadi;
- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o‘qish to‘g‘risida emas, balki insoniy, do‘stona munosabat to‘g‘risida ketayapti;
- axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;
- o‘rtoqlari bergen ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiyl maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘sishga olib keladi;
- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondag‘ zidliklar qiziquvchanlikni rivojlaniradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;

- tinglovchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;
- bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar;
- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;
- o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### **Guruha ishslash qoidalari:**

Har kim o‘z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi zarur;

Har kimdan yordam so‘ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

Boshqalarga yordam berib, o‘zimiz tushunamiz!

Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho‘kib ketamiz!

### **Guruha topshiriqni bajarish yo‘riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.

3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

## **1-bosqich**

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

## **2-Asosiy bosqich**

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

1. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

2. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishslash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

3. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

4. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash,vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishslash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishslashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

5. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko'rsatkichlarini eslatadi.

## **3-Nazorat –yakuniy bosqichi**

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

## **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan assoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarfini talab etadi.

### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### 1-mavzu: Didaktika fan sifatida (2 soat)

##### REJA:

1. Didaktik bilimlarni shakllantirishi va rivojlantirishi, didaktikaning asosiy funksiyalari.
2. Ta'lif jarayoni – didaktikaning asosiy kategoriyasi sifatida.
3. Didaktikaning rivojlanish tendensiyalari.



**Tayanch tushunchalar:** oliy ta'lif, didaktika, zamonaviy kategoriyalar, rivojlanish tendensiyalari, o'qitish konsepsiyalari, pedagogik jarayon, modellashtirish, o'quv faoliyati, didaktik tadqiqotlar.

##### 1. Didaktik bilimlarni shakllantirishi va rivojlantirishi, didaktikaning asosiy funksiyalari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lif sifatini tubdan o'zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish orqali shaxsning sub'ekt sifatida namoyon bo'lishiga keng imkoniyatlар yaratilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda uzlusiz ta'lif tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.



Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Innovatsiyalarni tatbiq etishning natijaviyligini tekshirish pedagogik jarayonlar samaradorligini ob’ektiv baholashni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo‘ladi: - pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o‘sishi; - jamoada barcha uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga kelishi hamda uning mustahkam va ijobjiy xususiyatlari; - pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga sub’ektlar moyilligi va jamoaning tayyorgarligi; - ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatni oshirishga jamoadagi moyillik; - professor-o‘qituvchilar va rahbar xodimlar o‘rtasida axborotlar almashinushi sifatining o‘sishi; - uzlusiz ta’lim tizimining navbatdagi bosqichlarida o‘qishni davom ettirishlari uchun ta’lim oluvchi-talabalarni tayyorlash darajasi va ta’lim muassasasida yaratilayotgan shart-sharoitlar sifati. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion modellarni samarali tatbiq etishning boshlang‘ich shartlari sifatida: - umumiy maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg‘unlashuvni; - jamoada psixologik muhitning ijobjiyligi; - innovatsion jarayonlarda professor-o‘qituvchilarning samarali ishtirokini ta’milovchi chora-tadbirlarni misol keltirish mumkin. Adabiyotlarda (V.Bespalko, K.Klarin, N.Muslimov, S.Turg‘unov) innovatsiya bo‘yicha juda ko‘p tushunchalar keltirilgan. Masalan, u mazmun va mohiyati, ichki tuzilishiga ko‘ra texnikaviy, iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv va boshqa innovatsiya turlariga ajratilgan. Innovatsiyaning belgilari sifatida, uning ko‘lami (global va lokal), davriyligi, amaliyatga tatbiq etish jarayonining (bosqichlarga ajratish va tahlil qilish) qonuniyatlari ajratib ko‘rsatilgan. “Innovatsiya” tushunchasi (lot. novus – yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo‘llanila boshlanib, oldingi vaqtarda u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan.

Innovatsiya – maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar bo‘lib, ma’lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo‘lgan elementlarni, umumiyl holda xalqning ma’naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangiliklarni kiritishdir. Ba’zida innovatsiya jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda yangiliklar kiritishning rivojlanishi vaqtga bog‘liq bo‘lib, u aniq ifodalangan bosqichlarga ega bo‘ladi, deb ko‘rsatiladi. Innovatsiya tushunchasi doimo bir xil ma’noda ta’riflanmaydi, ko‘p hollarda u “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida, “innovatsion jarayon” tushunchasi esa, yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyatida samarali qo‘llashni ifodalaydi.

Oliy ta’lim didaktikasida “yangilik”, “yangilanish”, “yangilik kiritish” tushunchalari ko‘pincha tenglashtiriladi, lekin ularning o‘rtasida ba’zi bir farqlar mavjud. Yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtiolar bo‘lishi mumkin. Yangilik kiritish – bu yangilikning qo‘llanishini bildiradi. Yangiliklarni amaliyotda qo‘llash va ommalashtirishga kirishilgan vaqtida u yangi sifatga ega bo‘ladi va innovatsiyalar vujudga keladi. Yangilik kiritishni ommalashtirish va ularni tashkil etish innovatsion jarayonning tashkil etuvchi qismlari hisoblanadi. Innovatsion jarayonning uchta mantiqiy shakllari ajratiladi: tashkilot ichidagi oddiy jarayon, tashkilotlararo oddiy jarayon va kengaytirilgan jarayon. Tashkilot ichidagi oddiy innovatsion jarayon bitta tashkilotning o‘zida, ya’ni uning ichki faoliyatida yangilikni joriy etishni ko‘zda tutadi, bunda yangilik ommalashtirish shakliga ega bo‘lmaydi. Oliy ta’lim didaktikasida o‘zaro ta’sir etish tavsifiga ko‘ra quyidagi ta’lim paradigmalari farqlanadi.

**An’anaviy (bilimga yo‘naltirilgan) paradigma.** Bilimga yo‘naltirilgan paradigmada ta’limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta’lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko‘proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko‘nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta’minlashga asoslanadi.

**Bixevoiristik (ratsionalistik) paradigma.** Ratsionalistik paradigma an’anaviy paradigmaga qarama-qarshi o‘laroq, o‘zining diqqat markazida mazmunni emas, ta’lim oluvchilarining turli turdagil bilimlarni o‘zlashtirishining samarali usullarini qo‘yadi. Ratsionalistik ta’lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevoiristik konsepsiysi turadi. Ta’lim muassasasining maqsadi – ta’lim oluvchilarda ijtimoiy me’yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli «xulq-atvor majmui»ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi «barcha turdag reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrashi, his-tuyg‘usi va harakati»ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraydi, ya’ni har qanday ta’lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta’limiy mexanizmi. Bunday o‘qitishning asosiy metodlariga o‘rgatish, trening, test nazorati, individual o‘qitish, korrektsiyalash kiradi.

**Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasing** diqqat markazida o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo‘lgan, hayot subekti, shaxs erkinligi va ma’naviyati sifatidagi ta’lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o‘sishi uchun yordamga yo‘naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta’limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya’ni ta’lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e’tirof etish yagona yo‘nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta’lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta’lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o‘qituvchi, ham ta’lim oluvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta’limning ijtimoiylashuvi – o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta’minlash, o‘qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;
- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish;
- ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g‘oyalariiga asoslanish;
- shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;
- o‘qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o‘qituvchi hamda ta’lim oluvchilarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;
- ta’lim jarayonida o‘quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko‘ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;
- pedagogik ta’limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya’ni, ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta’minlovchi invariant bilimlarning o‘zlashtirilishiga erishish;
- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi ehtiyojlarga to‘laqonli javob bera oladigan ta’limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

– ta’limning uzluksizligi, ta’limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta’minlovchi kasbiy ta’lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta’limning u yoki bu bosqichida o‘qitilishi yoki o‘qishni boshqa tipdagi o‘quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

– ta’limning ekvivalentligi, ya’ni uning davlat ta’lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me’yorlarga muvofiq darajasi.

**Ilmiy-texnik, texnokratik paradigm**ning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o‘zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o‘zini o‘zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o‘rtacha namuna, standartlashgan) dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo‘q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyalı – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma’lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo‘ladi.

**Ezoterik paradigma.** Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta’limiy paradigmalardan biri. Mazkur so‘zning yunonchadan so‘zma-so‘z tarjimasi «sirli», «yashirin» ma’nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o‘zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdarlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi ta’lim oluvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo‘lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta’lim oluvchilarining axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

Oliy ta’limda innovatsion faoliyatning mazmuni: eksperimental va izlanuvchan loyihalash faoliyati, kasbiy va ta’lim faoliyati bilan o‘zaro aloqadorlikdadir. Innovatsiya darajasi mezonlari yangilik, takrorlanuvchanlik, foydalilik, amalga oshirish imkoniyati, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, samaradorlik, ishlab chiqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Oliy ta’lim didaktikasida **ta’lim** - bilim, ko‘nikma va malakalarni egallah, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayon, deb tavsiflanadi. Bunda **bilim** – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog‘liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya’ni bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o‘zlashtirish natijasidir.

Bilimni hayotda ko‘p samara beradigan qilib qo‘llay olish uchun bilim bilan birga ko‘nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo‘lsa, ko‘nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyonи o‘zlashtirishda zarur.

**Ma’lumot** - ta’lim - tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘n ikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar

majmuidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyalanishi va ta’lim olishi pedagogik jarayonda sodir bo‘ladi.

**Ko‘nikma** – malakaning tarkibiy qismi bo‘lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va ta’lim oluvchi – talabalarda ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig‘indisidir.

**Malaka** – tahsil oluvchilarning bilim egallash va mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu orqali o‘qishda va mehnat faoliyatida ijobiy natijalarga erishib, ongli bajarishga tayyor bo‘lishdir. Iqtidor va ko‘nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi

**Mahorat** – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir.

Ta’lim jarayonida tahsil oluvchilar muayyan ma’lumotga ega bo‘ladilar.

**2. Didaktik prinsiplar va ularning mazmuni.** *Ta’lim jarayoni qonuniyatlari-* bu pedagogikada qonunlarning aniq sharoitdaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta’lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko‘rib bo‘lmaydi.

Ta’limninig umumiyligi qonuniyatlari	
ta’limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog‘liqlikda aniqlashtiriladi;	ta’lim metodlari samaradorligi ta’lim maqsadiga; ta’lim oluvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlariga; ta’lim muassasasining moddiy-texnik ta’minotiga bog‘liq;
ta’lim mazmunini belgilashda ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati; ta’lim oluvchilarning yoshi imkoniyatlari; ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslaniladi;	ta’limni boshqarish samaradorligi ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta’sir ko‘rsatishning asoslanganligiga bog‘liq
ta’limning sifati avvalgi bosqich mahsuldarligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi; ta’lim oluvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish; ta’lim oluvchilarning bilim olishga qobiliyatları va ta’lim vaqtiga bog‘liq;	ta’limda rag‘batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Pedagogikada ta’limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud: **gnoseologik:** ta’lim natijalari ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish ko‘nikmalariga; ta’lim

samaradorligi ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyati hajmiga; bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo‘llanilishiga; ta’lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi o‘zaro aloqador bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq.

### Ta’limning xususiy qonuniyatları

<b>psixologik:</b> ta’lim samaradorligi ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o‘ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog‘li	<b>tashkiliy:</b> ta’lim natijasi ta’lim oluvchining o‘quv mehnatiga, o‘zining o‘quv majburiyatlariga munosabatiga; ta’lim oluvchining ishchanlik qobiliyatiga; ta’lim oluvchilarning aqliy faolligini oshirish o‘quv mashg‘uloti jadvalining tuzilishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg‘ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog‘liq.
<b>kibernetik:</b> ta’lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to‘g‘ri olib borilishiga; ta’lim sifati o‘quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog‘liq.	<b>sotsiologik:</b> individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo‘ladigan individlarning rivojlanishiga; ta’lim samaradorligi «intellektual muhit»ning mavjud holatiga, o‘zaro bir-biriga o‘rgatishning jadalligiga; o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog‘liq

**Ta’lim tamoyillari.** Ta’lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi. Ta’lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta’limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.

Ta’lim tamoyillari	
<b>Ta’limni insonparvarlashtirish –</b> uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o‘zaro aloqasi va birligini ta’minalash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirishdir.	<b>Ta’limning madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyili.</b> Ta’limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o‘sish holatida bo‘lgan o‘zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat
<b>Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi tamoyili.</b> Ta’lim oluvchilarga	<b>Ta’limning ilmiylik tamoyili –</b> ta’lim oluvchining o‘quv

<p>ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.</p>	<p>materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to‘plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi</p>
<p><b>Ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili</b> bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qilishini, ta’lim oluvchilarning uzluksiz va tizimli sur’atda mustaqil ish olib borishlarini, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o‘z ichiga oladi.</p>	<p><b>Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi tamoyili</b> yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi.</p>

Shaxsning rivojlanishi va ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirot etishga jalb etish, uning bilish bilan qo‘siluvchi va madaniyatni o‘zlashtirishi hamma-hammasi so‘nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo‘nalishda so‘nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldam-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat’iy belgilash, ularga qattiq ta’sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo‘lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko‘plab innovatsiyalar yo‘naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o‘laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo‘naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta’limni insonparvarlashtirish», ya’ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta’lim esa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

**Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi tamoyili.** Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta’lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g‘oyasiga asoslanadi. Ta’lim oluvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Umuman olganda, ta’lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya’ni tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi lozim.

**Ta’limning madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyili.** Ta’limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o’sish holatida bo‘lgan o‘zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta’lim butun umr davom etadi va ta’lim olish chegaralanmaydi. U insonga o‘z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o‘zining shaxsiy fikriga tayanish, o‘zining bu yorug‘ olamdagи mavjudligini anglash va o‘zining hayotdagi, madaniyatdagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Ta’limning bugungi kundagi ma’no-mantig‘i ham ana shundadir.

Ta’lim o‘zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o‘zining ongi, irodasi, his-tuyg‘usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo‘lishining o‘ziyoq nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste’mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim assosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o‘zini-o‘zini rivojlantirishi, o‘ziga-o‘ziga ta’lim berish va o‘zini-o‘zi loyihalashning namoyon bo‘lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

**Ta’limning ilmiylik tamoyili** – ta’lim oluvchining o‘quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to‘plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta’lim vaqtida va o‘qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta’lim mazmuni ta’lim oluvchilarni obektiy ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi.

**Ta’limning fundamentalligi va amaliy yo‘nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umuiy o‘rta ta’lim maktablaridayoq ta’lim oluvchilar chuqr nazariy va amaliy tayyorlikdan o‘tadilar.** Mazkur holat an‘anaviy didaktikada ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O‘qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to‘liq va chuqr bo‘lishini ko‘zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko‘rinishda bo‘lishi, bilimlarini doimiy ravishda to‘ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko‘proq uning fikrlash layoqatiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’limning fundamentalligi

bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o‘zaro nisbatda bo‘lishni talab etadi.

**Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi tamoyili** yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog‘liq.

**Ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili** bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materialarni to‘ldirishga xizmat qilishini, ta’lim oluvchilarning uzluksiz va tizimli sur’atda mustaqil ish olib borishlarini, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o‘z ichiga oladi.

Izchillik ta’lim mazmuni, uning shakli va usullari, o‘quv jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan subektlarning o‘zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o‘quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o‘zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o‘quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta’lim jarayonining ma’lum tizim va ketma-ketlik asosida bo‘lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o‘rganmay turib hal etib bo‘lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtirish sur’ati, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta’limning tizimliligi va ketma-ketligi ma’lum fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o‘rtasidagi qaramaqarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog‘liqliknini ta’minalash evaziga namoyon bo‘ladi.

**Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili** o‘qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda ta’lim oluvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog‘liq: o‘quv motivlari, ta’lim oluvchilarning faollik darajasi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o‘qituvchi tomonidan qo‘llanuvchi ta’lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Ta’lim oluvchilarning faollikkari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Mazkur tamoyil ta’lim oluvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

**Ta’limda ko‘rsatmalilik tamoyili** o‘qitish jarayoni sifatini oshiradi, ta’lim oluvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning «oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta’limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz ta’lim oluvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko‘rish bilan ta’limga intilishimiz kerak – deb ta’kidlaydi u –

agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa – 25% ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda ta'lim oluvchilarining dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

**Ta'limning ta'lim oluvchilarga mos bo'lishi tamoyili** deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf ta'lim oluvchilarining jismoniy rivojiga, umumiyligi tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiqliki bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish ta'lim oluvchilarining psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi ta'lim oluvchilarining yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish ta'lim oluvchilarining murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdag'i sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

**Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili** muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qo'lay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalari, tushunchalar, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

**Ta'limning tushunarligi tamoyili** ta'lim oluvchilarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsiyalarni qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi ta'lim oluvchilarining yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim oluvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonining ta'lim oluvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga

keltirishga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko‘zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o‘quv masalalarini yechishdagi ishonchszlikni yo‘qotishga yordam beradi.

Didaktikada tarbiya ham muhim o‘rin egallaydi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyanı tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma’nodagi tarbiya farqlanadi.

Tarbiya tamoyillari yo‘l - yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad- har tomonlama ma’naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma’lum maqsadni ko‘zlovchi va uzlusiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi bo‘lajak mutaxassislarning axloqiy, ma’naviy tarbiyalanganlik istiqbollarini ko‘ra biliшda yordam beradi.

Inson paydo bo‘libdiki, tarbiya jarayoni va tamoyillari mavjud.

Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayonida bo‘lajak mutaxassisda his-tuyg‘ular va turli qobiliyatları rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, meditsina sohasidagi bilimlari tarkib topadi. Tarbiya jarayonida yoshlarda jamiyatning mutaxassis shaxsiga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi.

Tarbiya asosida yoshlarda miliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, xuquqiy madaniyat-sog‘lom dunyoqarashning mu’him omili ekani to‘grisidagi ma’lumotlarni ko‘paytirish, ma’rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarining egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiyl vazifalari:

- jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruahlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

**Didaktikada tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari:**

maqsadga yo‘naltirilganligi; ko‘p qirrali jarayon; uzoq muddat davom etishi; uzluksizligi; yaxlitligi; variativligi; natijalarning oldindan aniqlanmasligi; biroq kafolatlanishi zarurligi; ikki tomonlamalilik.

Tarbiya qonuniyatları – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar yig‘indisi

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatları mavjud:

- ijtimoiy muhitning obektiv va subektiv omillariga bog‘liqligi;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ga fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;
- tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining “ichki olami” ga ta’sir etishning intensivligi;
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligigi va uzluksizligi.

*Optimal o‘qitish yo‘llarini aniqlash, o‘quv texnologiyalarining tarkibi, usullari, shakllarini tanlash.* O‘quv-tarbiya turlari turli sohalarga ko‘ra tasnif etiladi. Ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo‘nalishlari bilan bog‘liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo‘linadi. Institutsional belgilariga bo‘yicha oila, ta’lim muassasasi, ta’lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta’lim muassasalaridagi tarbiyaga bo‘linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko‘ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog‘liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Tarbiya jarayonida asosiy vazifa ta’lim-tarbiya berish, yoshlarda bilim, ko‘nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura-inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o‘zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g‘oyalari xalqning ishonch - e’tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansa etaricha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ‘ibot va tashviqot ishlarini, Tahsil oluvchilarning tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan qolda marifiy yo‘l va usullar orqali amalga oshirish taqoza etiladi.

**Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyillari.** O‘qituvchining bilim saviyasi ma’naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi etakchi omillardan biridir. Tarbiyada inson shaxsini oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huqo‘qi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma’muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo‘yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o‘zgartirish demakdir. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko‘zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o‘zligini anglashni ta’minlaydi.

**Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.** Yoshlarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo‘lgantalablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ko‘p asrlik qadriyatlarni ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali tahsil oluvchilar go‘zal axloq, baxt, insof, poklik, meqr - shavqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari qaqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar. Insoniylik - o‘z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do‘slik, ota - onaga sadoqatlilik, meqnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni hamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko‘chib kelgan.

**Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning uyg‘unligi va uzluksizlik yo‘nalishi.** Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo‘lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo‘g‘inlarni birgalikda ish ko‘rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Tarbiyaning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog‘liq. Bo‘lajak mutaxassisda ma`naviy va

insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat mo‘him o‘rin egallaydi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog‘liq.

Metod, ya’ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab bir necha turlarga bo‘linadi:

- So‘z orqali ifodalash;
- Ko‘rgazmalilik;
- Amaliy namuna;
- Irodani safarbar etish;
- Rag‘batlantirish va jazo;
- Ijtimoiy ongni shakllantirish.

Bu metodlar o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

Birinchi guruh - so‘z orqali uzatish, maslahat berish, ma’lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh - kinofil’mlar, tasviriy san’at, badiiy san’at va boshqa ko‘rish orqali tarbiyalash uslublari

Uchinchi guruh – tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o‘rnak ko‘rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko‘rsatish.

To‘rtinchi guruh – yaxshi bajarilgan ishlarni ma’qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma`naviy rag‘batlantirish.

**Tarbiya vositalari** biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo‘l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlataladi. (Ko‘rsatmali ko‘n ikmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari bo‘lajak mutaxassislar jalb qilingan faoliyat turlari kinofil’mlar, meditsina xaritalari, sport va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo‘lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining xususiyatlari				
Ko‘p qirrali jarayon	uzoq muddat davom etadi	yaxlit holda va konentrik asosda amalgao shadi	Ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi	Qarama-qarshliklar ko‘pligi

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Tarbiya amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar–bu tarbiyalanuvchilarining ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiya usullari – umumiyl metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin.

Shu jihatdan olganda, yoshamizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan

ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘lgan oilani mustahkamlash butungi kunda bar-chamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi lozim.

**O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.** **O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari.** Ta’lim oluvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni, o‘z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

**O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish** o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun ta’lim oluvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O‘z-o‘zini baholash** mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat metodi.

Ta’lim oluvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin ta’lim oluvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois ta’lim oluvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. **Ishontirish** vositasida ta’lim oluvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf ta’lim oluvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

**Munozara** tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda ta’lim oluvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

**Mashq va o‘rgatish metodlari** muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. Ta’lim oluvchilar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish ta’lim oluvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, ta’lim oluvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

**Topshiriq** ta’lim oluvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan metod. Ta’lim oluvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ta’lim oluvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun masuliyatni his etishga o‘rganadilar, mehnat qilish ta’lim oluvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

**Pedagogik talab** turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida ta’lim oluvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Pedagogik talab ma’lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sinqinlik qiluvchi hamda ta’lim oluvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

**Rag‘batlantirish** tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash metodidir. O‘qituvchi har bir ta’lim oluvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglab olishi zarur.

**Tanbeh berish** – eng muhim jazo chorasi. O‘qituvchi ta’lim oluvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.

**Uyaltirish** – ta’lim oluvchining ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun masul bo‘lgan subektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg‘ularni ehtiyyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

**Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.** Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq:

**1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.** Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari shunga muvofiq bo‘lishi zarur.

**2. Tarbiya mazmuni.** Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

**3. Tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish.** U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarining yoshi bilan bog‘liqlikda hal etiladi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, masuliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rtta ta’lim va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan ta’lim oluvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

**4. Jamoaning shakllanganlik darajasi.** O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

**5. Tarbiyalanuvchilarining individual o‘ziga xosliklari.** Umumiylar, umumiylar dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligining rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men» ini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

**6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar.** Unga moddiy, psixofiziologik, sanitargigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

**7. Tarbiya vositalari.** Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qo‘llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qurollar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

**8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.** Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘qituvchidan ko‘p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday masuliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo‘ladi.

**9. Tarbiya vaqtisi.** Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo‘lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalilaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan»

va «oddiy» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

**10. Kutiladigan natija.** Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishda shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzlusiz, izchil ravishda mavjud fanlar assolarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalarni yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

**Birinchi bosqichda** ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. **Ikkinci bosqichda** ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi. **Uchinchi bosqichda**, e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. Ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

### **3. Ta’lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar, asosiy didaktik yondashuvlar.**

Ma’lumki, oliy ta’lim tashkilotlari yosh avlodni ijtimoiylashuvi va davlat hamda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashdek muhim vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar yechimini topishda oliy ta’lim asosini tashkil etuvchi mutaxassislik fanlari mazmuni muhim ahamiyat kasb etadi va pedagogikaning asosiy masalasi hisoblangan nimani, nima uchun o‘qitish kerak, degan savollarga javob beradi. Zero, oliy ta’lim bir tomonidan jamiyat hayot shart-sharoitlarini ijobiy tomonga o‘zgartiruvchi, ikkinchi tomonidan fan-texnika taraqqiyotini ta’minlovchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu ijtimoiy va ishlab chiqarish muammolari dialektik yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘lib, ta’lim mazmunini rivojlantirish istiqbollarini belgilaydi.

Oliy ta’lim mazmunining hajmi kishilik jamiyatni tajribalari, madaniyati ko‘lamiga, xarakteri esa uning darajasi, yo‘nalishi va eng avvalo jamiyat tuzilmasiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan jamiyat maqsadi, talab va ehtiyojlari, orzu umidlariga binoan oliy ta’lim-tarbiya mazmunini shakllantirilishi kelib chiqadi.

Oliy ta’lim jarayonida talabalar ta’lim mazmunini o‘zlashtiradilar. Bu mazmun qancha kam va tushunarli bo‘lsa, oliy ta’lim-tarbiya jarayoni ham unga mos holda qisqa bo‘ladi. Lekin bu jarayon samaradorligi aniq boshlang‘ich va so‘nggi holatiga ko‘ra baholanadi. Umuman, ta’lim-tarbiya, shuningdek, oliy ta’lim jarayoni murakkab jarayonlar turkumiga mansubligi e’tirof etilgan. Chunki o‘quv materialining o‘zlashtirilishini ta’mindan etuvchi psixik jarayonlarni bevosita kuzatish imkoniyati mavjud emas. Ular to‘g‘risida tahsil oluvchilarning kompetensiyalariga binoan xulosa chiqarish mumkin xolos. Shuning uchun ham oldingi faslda bayon etilganidek oliy ta’limning mohiyatini tushunish uchun uning qonuniyatlarini va qoidalarini bilishni talab etadi.

Biz oliy ta’lim mazmuni deganda pedagogik tilda o‘z ifodasini topgan jamiyat to‘plagan tajribalarni tushunamiz. U bir paytning o‘zida ta’lim maqsadlari, o‘zlashtirish ob‘ekti, ta’lim-tarbiya natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim jarayonida maqsad, mazmun, o‘zlashtirish qonuniyatlariga mos aniq maqsadlar shaklida tahsil oluvchilar oldiga vazifa sifatida qo‘yiladi. Tahsil oluvchilar vazifalarning mohiyatini anglab, unga mos o‘quv- bilish faoliyatini amalga oshiradilar. Natijada ongli, faol, mustaqil o‘quv-bilish faoliyati orqali o‘quv materialini o‘zlashtirilishiga erishiladi.

Demak, o‘qituvchi o‘zlashtirish qonuniyatlarini bilish orqali tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zlashtirish natijalari esa, o‘z navbatida keyingi hamkorlik xatti-harakatlar tavsiyini belgilaydi. Shunday qilib, oliy ta’lim tahsil oluvchilar oldiga ma’lum maqsadlarning qo‘yilishi bilan boshlanadi. Tahsil oluvchilar tomonidan maqsadning qabul qilinishi turlicha kechishi mumkin. Eng avvalo u diqqat-e’tiborini qaratish, eshitish, ko‘rish, hidlash, ushlab ko‘rish, xatti-harakat usullarini bajarish, ya’ni idrok (his) etish darajasida amalga oshiriladi. Keyinchalik maqsadlar murakkablashib, turli vazifalar, savollar ko‘rinishiga ega bo‘lib, amaliy xarakterdagi ijodiy ishlarni bajarish darajasigacha oshib boradi. Maqsadlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita tahsil oluvchilarning ehtiyojlari, ya’ni materialning yangiligi, talabaning mustaqilligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi kabilarni hisobga olgan holda qo‘yish zarur.

Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning hamkorlik faoliyati hamda ta’lim mazmunining o‘zaro ta’siri, aloqadorligida sodir bo‘ladi.

Pedagogik manbalarda ta’lim mazmuni haqidagi masala munozarali xarakterga ega. Bu tushunchani izohlashga ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati va ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Bilimlarni egallahsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni shaxsning ijtimoiylashuviga imkon berib, fan va ishlab chiqarish sohalari bilan tahsil oluvchi muloqoti va munosabatini belgilaydi. Shuningdek, ushbu yondashuvga ko‘ra, bilimlar talabalarning qadriyatlar yondashuvi I.Ya. Lerner, M.N. Skatkin,

B.M. Bim-Bad va shu kabi pedagog olimlar tomonidan ta’lim mazmunining mohiyati aniqlangan. Yuqorida zikr etilgan olimlarning fikricha, ta’lim mazmuni faqat bilim va ko‘nikmalardan iborat emas. Zero, bilim va ish-harakat usullari ta’lim mazmunining muhim elementidir. Rus pedagog olimi I.Ya. Lerner bilimlarni quyidagi uch vazifasini ajratib ko‘rsatadi:

1. O‘rganilayotgan real vogelik haqida umumiylashtirish tasavvur hosil qilish, jamiyat va insoniyatning yaxlit rivojlanishini ilmiy tasavvur etish;

2. Xatti-harakat usullarini mo‘ljalga olish asoslarini yaratish yoki xatti-harakat usullarining yo‘nalishini aniqlash;

3. O‘qib- o‘rganilayotgan ob’ektlarga nisbatan emotsiyalarning munosabatlar asoslarini shakllantirish, shu yo‘l bilan dunyoqarashni tarbiyalash vositasi bo‘lish.

Ijtimoiy tajribalar: bilim, xatti-harakat usullari, ijodiy tajriba yoki izlanuvchan faoliyat hamda emotsiyalarning munosabatlarini o‘ziga qamrab oladi.

Fan-texnika taraqqiyoti va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalari faqat ishlab chiqarish sohasida emas, balki oliy ta’lim mazmuniga ham katta o‘zgartirishlar kiritadi. Didaktlar umuman ta’lim, shuningdek, oliy ta’lim mazmunini aniqlashda uning formal va moddiy jihatlari birligi prinsipiga asoslanish kerakligini uqtiradilar. Biz ularning fikr-mulohazalariga to‘liq qo‘shilamiz. Formal va moddiy nazariyalarning birligi prinsipiga ko‘ra: oliy ta’limning mazmunini umumiylashtirish tuzilmasida tabiat va jamiyat haqidagi nazariy bilimlar tizimi, tafakkur (bilish) qonun va qonuniyatlarini, ishlab chiqarish texnikalari va texnologiyalari, yoshlarni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, milliy ma’naviyatni shakllantirish, shaxsni mutaxassis sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’min etuvchi barcha komponentlarni o‘ziga qamrab oladi. Bu komponentlar ko‘lami va darajasi oliy ta’lim tashkilotlari oldiga qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Respublikamizda oliy ta’limni tashkil etish shakllari va bosqichlari ilgarilab borish, uzlusizlik, uzviylik, izchillik kabi ko‘p sonli prinsiplarga asoslanib tashkil etilgan. Bundan ta’lim mazmuniga tabiat va jamiyat, texnika va texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda boshqarish kabi sohalarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning ta’sir ko‘rsatishi kelib chiqadi.

Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari ularni tashkil etish va boshqarish, mulkiy munosabatlar kabilari bo‘lajak malakali mutaxassislar kasbiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur hamda yetarli bo‘lgan kompetensiyalar ko‘laming haddan tashqari kengayishiga olib kelmoqda. Natijada axborotlar ko‘lami ortib borib, har uch-besh yilda uning hajmi karrali ravishda oshib bormoqda. Istiqbolda mutaxassisning kasbiy bilim va amaliy tajribalarini yangilanishiga hozirgidan ham nisbatan qisqa vaqt talab etilishi tabiiy hol. Shunga ko‘ra oliy ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqib, zamon va istiqbol talablariga uyg‘unlashtirish (modernizatsiyalash) sururiyati kelib chiqadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Modernizatsiya” tushunchasiga – “zamonaviy talab va didga moslab o‘zgartirish; zamonaviylashtirish” – deb izoh berilgan.

Oliy ta’lim mazmunini o‘zgarishi o‘z navbatida uni tashkil etib o‘tkazilish shakli, metodlari va vositalarini ham o‘zgarishiga olib keladi. Bunda ta’lim muddatini o‘zgartirmagan holda bo‘lajak malakali mutaxassislar tomonidan davlat ta’lim standartlarida belgilanganidek zarur va yetarli darajadagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlarni maqbul o‘zlashtirishlari talab etiladi. Shuning uchun ham oliy ta’limning maqbul mazmunini tanlab, bo‘lajak malakali mutaxassislarning shaxsiy mulkiga aylantirish uchun tizimli yondashish zarur. Ya’ni:

- o‘quv materiali mazmuni va tuzilmasini o‘zgartirish;
- o‘quv materialini tahsil oluvchilar ongiga yetkazishda ularning yoshi, individual xususiyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlari, shart-sharoit kabi ko‘plab omillarni hisobga olish;
- tahsil oluvchilarning ongliligi, faolligi, mustaqilligini oshirish;
- nazariyani amaliyat va hayot bilan uzviy bog‘lab o‘rganishni tashkil etish;
- fanlararo aloqadorlikka asoslanish;
- dasturiy materiallardan tizim hosil qiluvchi asosiy o‘quv materialini ajratib olib, ularni har tomonlama mukammal o‘rganish kabi dolzarb muammolarni hal etish zaruriyati mavjud.

Bunda mutaxassislik fanlarining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olib, induktiv, traduktiv va deduktiv metodlarning maqbul o‘zaro nisbati hamda uyg‘unlikda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim sohasida ko‘p yillik amaliy tajribalarimiz mutaxassislikka oid fanlarini o‘rganish jarayonida deduktiv ta’lim metodlaridan nisbatan ko‘proq foydalanilganda belgilangan vaqt ichida nisbatan katta hajmdagi o‘quv materialini mukammal o‘zlashtirish imkonini berishini ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki, oliy ta’lim-tarbiya jarayoni bevosita qo‘yilgan aniq maqsad, o‘rganilayotgan o‘quv materialining mazmuni va xarakteri kabi ko‘plab omillarga ko‘ra tashkil etilib o‘tkaziladi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonini oqilona tashkil etish shakli va metodlarini aniqlash maqsadida o‘quv materiali

mazmuni didaktik tahlil etilib, o‘quv materialining asosiy guruhlari belgilab olinadi. Didaktik tahlilga asos qilinib ta’lim mazmunining xarakteri, uni alohida qismlarini (muhimligi) olish mumkin.



#### *Asosiy didaktik yondashuvlar:*

**Innovatsion yondashuv (pedagogik innovatika, pedagogik innovatsiya)** – Yaqin o‘tmishda “Innovatsion ta’lim”, “Innovatsion faoliyat” va “Innovatsion jarayonlar” terminlari respublikamizning pedagogik adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta’lim so‘zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o‘zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

**Innovatsion ta’lim** - ta’lim oluvchida yangi g’oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

*Ta’lim innovatsiyalari*-ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Ta’lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta’lim konsepsiyasidagi, o‘quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o‘qitish usullaridagi yangilik va o‘zgarishlardir. Ta’lim sohasida innovatsion jarayonlar so‘zining tub ma’nosida pedagogikaning ikkita muhim – o‘rganish, umumlashtirish va ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyatga tadbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizi bir – biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo‘lishi kerak. Aynan, innovatsion faoliyat xizmat ko‘rsatish bozorida oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor – o‘qituvchining kasb mahoratining o‘sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham, innovatsion faoliyat o‘qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarning o‘quv jarayoniga ijodiy faoliyati bilan uzluksiz bog‘liq.

*Innovatsion faoliyat* – yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat

Ta’limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni ***tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish*** bosqichlarida amalga oshiriladi.


«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkrtychanning bu haqdagi fikri dikqatga sazovar: – «Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: ***xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati***. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun

motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

**Akmeologik yondashuv** (*grekcha “akme” so‘zidan olingan bo‘lib, “oliv nuqta”, “yuqori cho‘qqi” degan ma’nolarni anglatadi*). Akmeologiya birinchi navbatda “fan” hisoblanadi. **Akmeologiya** - bu kattalarning (psixologik, natijalarga va mahorat cho‘qqisiga erishish) rivojlanish qonunlarini o‘rganadigan fan. Akmeologiya dastlab nemis psixolog olimi **Sharlotta Byuler (1893-1974)** tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, 1928 yilda rus olimi **Nikolay Aleksandrovich Рыбников** (1880-1961) tomonidan **Akmeologiya**-“Etuk odamlarning rivojlanishi” haqidagi fan sifatida e’tirof etgan. Bu fan sifatida tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnika fanlarining shzaro integratsiyasi natijasida paydo bo‘lgan fan hisoblanadi. Akmeologiya fani bir vaqtning o‘zida pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy aloqada rivojlanmoqda.


Akmeologik yondashuv bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishda yangi paradigmadir. Yangi iqtisodiyotning barcha jahbalariga turli kasblar bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlash uchun akmeologiyaning quyidagi yo‘nalishlarining o‘rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. Bular: pedagogik, harbiy, ijtimoiy, maktab, tibbiyot, boshqaruv, kreativ, sinergetik, korreksion va etnik akmeologiyalardir.



**Aksiologik yondashuv** Aksiologiya (yunoncha *axio* – qadriyat va *logos* – fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, ma’naviy hodisalardan biri bo‘lgan qadriyatlar sohasini o‘rganadigan, uning qonun va kategoriylarini tadqiq qiladigan ilm yo‘nalishi, qadriyatlar haqidagi fan. U XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan. Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar sistemasidir. Zamonaviy Aksiologiyada ob’ektiv, sub’ektiv va plyuralistik oqim hamda yo‘nalishlar mavjud. Aksiologiya «qadr», «qadrlash», «qadriyatlar», «qadriyatlar tizimi» kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o‘rganadi. Qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug‘ullanadigan masalalar doirasiga kiradi.

**Kreativ yondashuv – Kreativlik** (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo’llanila boshlaganiga hali u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Biroq, o‘qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiylari va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi.



“Kreativ pedagogika” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) pedagog-o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalb etish;

2) talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

*Pedagogik kreativlik* – pedagogning an’naviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’naviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil- mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar, Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar.

**Refleksiv yondashuv** – (lotincha *reflexio-* ortga qaytish) faqat sub’ektning o‘z-o‘zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg‘usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi

Refleksiv innovatsion amaliyot o‘qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o‘z-o‘ziga, o‘z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o‘ziga hos ijodiy munosabatda bo‘lish tushuniladi.

Refleksiv innovatsion amaliyot ilgarigi tajribani dolzarblashtirish uni qayta anglash bo‘lajak ta’lim muassasasining yangi muammo va munosabatlarini aniqlash uchun imkon beradi.

Demak, pedagog-o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Texnologik yondashuv - Texnologiya** (yunon. “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi

**Ta’lim texnologiyasi** (ingl. “an educational technology”) – ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi

**Ta’lim texnologiyasi** – ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyiqlashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa va AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsnинг ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi. Mazkur g‘oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika” (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor talabalar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob’ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi.

60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko‘rila boshlandi. Dasturiy ta’lim talabalarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan “Dasturiy ta’lim va o‘rgatuvchi mashinalar bo‘yicha birlashgan Qo‘mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o‘zida

ta’lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi.

**Kompetentli yondashuv** – Kompetentlik yondoshuvining asoschilaridan biri bo‘lgan J.Raven buning muhimligini shunday tushuntiradi: “biz ko‘proq va kamroq kompetentli fermerlar, o‘qituvchilar, haydovchilar, temirchilar, menedjerlar va harbiy ofitserlarni solishtirganimizda, har bir holatda o‘z ishining ustalari namoyish qilgan aynan siyosiy xulq-atvor eng muhim bo‘lib chiqdi. Aksincha, odamlarning bevosita xizmat burchlari doirasidan tashqaridagi ijtimoiy, tashkiliy va siyosiy cheklashlarga nisbatan biron bir chora-tadbirlarni ko‘rishga layoqatsizligi va hohishi yo‘qligi zamonaviy jamiyatda kompetentli bo‘lmagan kasbiy xulq-atvorning asosiy manbai sifatida namoyon bo‘ladi, vaholanki, aynan ular inson bu doira ichida nima qila olishini aniqlaydilar.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o‘qitish jarayonida amalga oshirish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko‘rish, unda tizimli faoliyat ko‘rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta’lim jarayoniga kiritishdan iborat.

### **Nazorat savollari:**

1. Oliy ta’lim didaktikasining asosiy funksiyalarini bayon qiling.
2. Oliy ta’lim didaktikasida qanday ta’lim paradigmalari mavjud va ularni farqlang.
3. Didaktik prinsiplar va ularning mazmuni tavsiflang.
4. Ta’limning umumiylari va xususiy qonuniyatlarini qiyosiy tahlil qiling.
5. Ta’lim tamoyil (prinsip)larini izohlang.
6. Didaktikada tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
7. Asosiy didaktik yondashuvlarlarni o‘zaro bog‘liqligini tavsiflang..

### **ADABIYOTLAR:**

1. Rozov M. A. K metodologii analiza etosa nauki // Filosofiya nauki. Vypr. 11: Etos nauki na rubeje vekov. M.: IF RAN, 2015. S. 137—154.
2. Mirskaya Ye.Z., R. K. Merton i etos klassicheskoy nauki // Filosofiya nauki. Vypr. 11: Etos nauki na rubeje vekov. M.: IF RAN, 2015. S. 19.
3. Didaktika visshey shkoly: ucheb, posobie dlya stud. visssh. ped. ucheb. Zavedeniy /V. A. Popkov, A. V. Korjuev. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2018. S. 31.
4. Korshunova N. L. Ob’ektivnost znaniya v pedagogike i yee ob’ekt v kontekste razvitiya sovremennoy nauki // Psixologo-pedagogicheskiy poisk. 2019. № 2 (14). S 43—61, s. 46.

### **3-Mavzu: Ta’lim (o‘qitish) shakllari, metodlari va texnologiyalari**

#### **Reja:**

1. Dars (o‘quv mashg‘ulot)ta’limning asosiy shakli sifatida.
2. Pedagogik jarayonda ta’lim metodlari va vositalarining didaktik imkoniyatlari, metodlar klassifikatsiyasi.
3. Innovatsion (istiqbolli) ta’lim texnologiyalari.

**Dars (o‘quv mashg‘ulot)ta’limning asosiy shakli sifatida.** Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini o‘zaro bog‘liq hamkorlikdagi faoliyatlarining tashqi ko‘rinishi kasbiy ta’limning tashkiliy shakli deb e’tirof etiladi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida ta’limning tashkiliy shakllari turlicha bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridanoq, ya’ni yoshi ulug‘, hayotiy tajribasi katta kishilar yoshlarga ijtimoiy taraqqiyot talablariga javob beradigan qilib ta’lim-tarbiya berish shakllarini topishga uringanlar. Buning natijasida dastlab individual (yakka tartibda) ta’lim tarkib topgan bo‘lib, u vaqtlar o‘tishi bilan ustoz- shogird tizimi darajasigacha rivojlanТИRILGAN.

Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun ham bu usul bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Uning ustunligi o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va sur’atini to‘la individuallashtirishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik kompetensiyaga ega bo‘lishini talab etadi.

Individual o‘qitishning ustunliklari bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

1) ko‘p vaqt talab etilishi; 2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi; 3) boshqa tahsil oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi; 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur kamchiliklar XVI asrdan boshlab individual o‘qitishning ahamiyatini bir muncha pasayishiga va uning muqobili sifatida ta’limning individual-guruhli shaklini kelib chiqishiga imkon berdi.

Ta’limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshlandi. Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir tahsil oluvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi tahsil oluvchilar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir tahsil oluvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan tahsil oluvchilar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda, tahsil oluvchilar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan.

XV - XVI asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar ta’limning ommaviy shaklini yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida sinf-dars tizimini nazariy jihatdan asoslab berdi va ommaviy lashtirilishga muhim o‘z hissasini qo‘shdi. Komenskiy pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars, mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi muayyan asrlar avval asoslangan bo‘lsada, bugungi kunda ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etishning o‘ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan tahsil oluvchilar sinf yoki guruhni tashkil etadi. Bu sinf yoki guruh ta’lim muassasasida o‘qishning umumiyl davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf yoki guruh faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida tahsil oluvchilar yilning bir vaqt va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi.;

- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

- dars odatda bir o‘quv predmeti yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois tahsil oluvchilar sinf yoki guruhda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda tahsil oluvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir tahsil oluvchini alohida bilimini baholaydi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi va uning barcha ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘ratadi:

1) ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va tahsil oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go‘yoki “eshik” hisoblanadi.

2) asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.

3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga nemis pedagogi A.Disterveg ham katta hissa qo‘shdi. U o‘qituvchi va tahsil oluvchining faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, tahsil oluvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit ta’lim-tarbiya jarayonining aniq belgilangan tartib asosida kechishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonning o‘qituvchi tomonidan boshqarilishi: o‘quv muammosining tahsil oluvchilar yoki ishtirokchilar jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini hamkorlikda izlash jarayonida tahsil oluvchilar orasida o‘zaro musobaqa munosabatlarining shakllanishi; o‘qituvchining tahsil oluvchilar va ularning

tarbiyasiga doimiy emotsiyalligini ta'sir ko'rsatishi; ta'limning emotsiyonalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida tahsil oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi tahsil oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh yoki juda yaxshi o'zlashtiruvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdagi qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli tahsil oluvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan tahsil oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratildi. Shunga mos ravishda AQSh va Yevropada tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi.

Yevropa va AQShda, XX asr boshida tahsil oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilib.

XX asrning 20-yillarida amerikalik U.Kilpatrick ishlab chiqqan ta'limning loyiiali tizimi targ'ib qilina boshlandi. O'qitishning bu tizimi ta'lim oluvchilarning o'zlari loyiha ishlari mavzusini tanlab olishlaridan iborat edi. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi ixtisoslashishiga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

60-yillarda amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan Tramk rejasি juda mashhur bo'ldi. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100-150 nafar tahsil oluvchi) mashg'ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va ta'lim oluvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etgan. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40 foiz miqdori ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) – 20 foizi, kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40 foizi ajratiladi.

70-yillarda o'qishni tashkil etishning noan'anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba – sinov maktabalarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlar asosiy masalasi – o'qishni individuallashtirish edi. Hozirgi paytda XVI asrda Ya.A. Komenskiy tomonidan asoslangan sinf (guruh) - dars shakli va zamon hamda istiqbol talablarini o'zida aks ettiruvchi noan'anaviy (bahs-munozara, seminar, seminar-trening, laboratoriya-amaliy mashg'uloti, sayohat, davra suhbati, viktorina, fakultativ, o'yin kabi) shakllardan keng ko'lamda foydalanimoqda.

Sinf-dars tizimida mashg'ulot ta'lim oluvchilar yoshi va tayyorgarlik darajasiga binoan tabaqlashtirilib, ma'lum o'quv dasturi va jadval asosida o'qituvchi rahbarligida tashkil etilib o'tkaziladi. Hozirgi paytda darslarni tashkil etib o'tkazishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Darsning maqsad va vazifalarining aniqligi, o‘zaro bog‘liqligi hamda psixologik, pedagogik, fiziologik nuqtai nazardan maqbulligi.
2. Darsning mazmunan va tuzilmaviy jihatdan yaxlitligi.
3. Ishtirokchilarining ongli o‘zaro hamkorlik faoliyatining ta’minlanganligi.
4. Ta’lim oluvchilarning o‘qib-o‘rganishlari, tarbiyalanishlari va rivojlanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.
5. Barcha didaktik va xususiy prinsiplarga asoslanganligi.
6. Ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish, ularning faolligi, erkinligi, mustaqilligi, ijodkorligi kabilarga shart-sharoit yaratilishi kabilar.

Shu o‘rinda hozirgi paytda ham ta’lim-tarbiyani yakka tartibda tashkil etish shakli saqlanib qolgan bo‘lib, ayniqsa undan ta’lim oluvchilarning ehtiyoji, xohishi, qiziqishlari, ba’zan o‘zlashtirmaslikni bartaraf etish, uzoq vaqtlar davomida tibbiyot xodimlari nazoratida bo‘lgan yoshlarga ko‘maklashish maqsadida undan foydalanilmoqda.

Shunday qilib, shu paytgacha bu tizimdan foydalanib kelinmoqda, lekin unga muqobil tizim yaratilganicha yo‘q.

Hozirgi paytda kasbiy ta’limning tashkiliy shakllari quyidagi xususiyatlariga binoan turlanishi ko‘p sonli pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilgan:

Nofaol. Bu jarayonda o‘quv materiali o‘qituvchi tomonidan tayyor holda uzatiladi, tahsil oluvchilar faqat eshitadilar, kuzatadilar va imkon qadar xotirada saqlashga harakat qiladilar.

Faol. Kasbiy ta’lim jarayoni ishtirokchilar o‘zaro bir-birlariga nisbatan faol muloqot va munosabatda bo‘lib, o‘rganilayotgan ob’ekt ma’nosи hamda mohiyatini anglab yetadilar. Chunki bu jarayonda o‘qituvchi va tahsil oluvchilar orasida qaytar aloqa ta’minlanadi.

Interfaol shaklda tahsil oluvchilar o‘zaro muloqot va munosabatlari yo‘lga qo‘yilib, o‘qituvchi ham, tahsil oluvchilar ham faol ishtirok etib, o‘rganilayotgan ob’ektning mohiyati anglanib, amalda qo‘llanishi ham aniq misollar yordamida ko‘rsatiladi. Bunday ta’lim shakllarini ba’zi bir pedagoglar monologik, dialogik va poliologik ta’lim sifatida ham talqin etadilar. Ta’limning zikr etilgan shakllarini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.

Uzluksiz ta’lim tizimi muassasalari amaliyotida 80-85 va undan ortiq foiz miqdoridagi o‘quv mashg‘ulotlari sinf-dars tarzida amalga oshirilganligi sababli dars – ta’lim-tarbiya ishining shakli deb yuritiladi.

Sinf-dars tizimining asosiy o‘ziga xos jihatlari quyidagilar hisoblanadi: - deyarli bir xil tarkib, yosh va tayyorgarlik darajasidagi ta’lim oluvchilar ishtirok etadi; ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq alohida-alohida qismlar ko‘rinishiga ega bo‘ladi; - har bir dars o‘quv rejasiga kirgan ma’lum bir o‘quv predmetiga oid bo‘ladi; - darslar mutazam ravishda almashib turadi; - kasbiy ta’lim darslariga o‘qituvchi, muhandis-pedagog, yo‘riqchi, tajribali mutaxassis kabilar rahbarlik qiladi; - ta’lim oluvchilar turli ko‘rinishdagi o‘quv-bilish faoliyatida ishtirok etadilar.

Quyidagilar sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari hisoblanadi:

- kat’iy tashkiliy tuzilmaga egaligi; - iqtisodiy ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqoriligi. Sababi bir o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli ta’lim oluvchilar bilan ishlaydi; - o‘zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga qulay sharoit yaratilganligi kabilalar.

Shu bilan birga sinf-dars tizimining quyidagi kamchiliklari ham e’tirof etilgan:

O‘rtacha ta’lim oluvchiga mo‘ljallanganligi; har bir ta’lim oluvchi bilan individual ishslash imkoniyatining yo‘qligi; qat’iy tuzilmaga egaligi va shu kabilalar.


Ijtimoiy talablar, kasbiy ta’limning maqsad va vazifalari, ta’lim oluvchilarning talab va ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatları, prinsiplari kabilarga ko‘ra kasbiy ta’lim darslariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or, pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib dars tuzilmasini maqbullashtirish; - darsda barcha didaktik va xususiy prinsiplarining maqbul nisbati hamda uyg‘unligini ta’minlash; - ta’lim oluvchilarning ongliligi, qiziqishi, ehtiyojlari, moyilligini hisobga olgan holda faol, mahsulli o‘quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish; - o‘quv materialining mukammal o‘zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish; - ta’lim oluvchilar tomonidan ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘rish; - ta’lim oluvchilarning barcha ijobiy jihatlarini rag‘batlantirish, o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo‘li bilan ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirishga erishish; - darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsiyal his-tuyg‘ularga asoslanish; - didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish; - nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog‘lab o‘rganish; - zaruriy bilim, xatti-harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko‘rsatish usullarini tarkib toptirish; - ta’lim oluvchilarda muntazam va uzlusiz ravishda o‘qib-o‘rganish, o‘zining bilim va kasbiy mahoratini oshira borish ehtiyojini shakllantirish; - darslarni mukammal rejalashtirish natijalarini oldindan bashorat qilish, tashhislash va shu kabilalar. Zamonaviy darslarda bir-biri bilan uzviy bog‘liq: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va motivatsion maqsadlarni uyg‘unlashtirish bu sohada aniq maqsadlarni belgilab olishni talab etadi.

Bundan tashqari ta’lim metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o‘rnatish, hamkorlik qilish, sanitariya-gigienik, axloqiy kabi talablar ham hisobga olinadi. Yuqori sifat va samaradorlikka erishish uchun darslarni turlarinigina bilish kamlik qiladi. Buning uchun o‘qituvchidan qanday darslardan qachon foydalanish mumkinligini ham bilish talab etiladi. Sayohat, maslahat, uy ishi, o‘quv konferensiyalari, qo‘srimcha mashg‘ulotlar, seminar - praktikumlar, sinov va imtihonlar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar turlicha bo‘lib, o‘qituvchidan ijodiy yondashuv, eruditisiyani talab etadi. Agar sayohat belgilangan o‘tkazilish vaqtini, ishtirokchilari bilan chegaralangan qat’iy jadvalga binoan aniq mavzu bo‘yicha o‘tkazilsa, u sayohat darsi deb e’tirof etiladi.

Bunday hollarda mashg‘ulotni maxsus shartnomaga ko‘ra belgilangan mutaxassislar o‘tkazishi, ya’ni o‘tkazish muddatining aniq chegaralanmaganligi, ya’ni mashg‘ulot jadvaliga ma’lum ma’noda amal qilinmasligi tufayli u ta’lim-tarbiyaning maxsus shakli sifatida tan olinadi.

### Darslarning tasniflanishi



**Pedagogik jarayonda ta'lim metodlari va vositalarining didaktik imkoniyatlari, metodlar klassifikatsiyasi.** Pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya metodlarini tanlash muhim (markaziy) masalalardan biri hisoblanadi. Chunki didaktlar va amaliyotchilar tomonidan ta'lim-tarbiya metodlarini bu jarayonning maqbul kechishini ta'minlovchi omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu

fikrlarni isbotlash uchun avval ta’lim-tarbiya metod(lar)i iborasining mohiyatini anglab yetmoq zarur.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Ta’lim” [arabcha-o‘rganish, o‘qitish, ilm berish; ma’lumot]. 1. Bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan ma’lumot va ko‘nikmalar majmui; bilim. 3. Tarbiya, odob-axloq. 4. Ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq, o‘rgatuv.

“Tarbiya” [arabcha-rivojlantirish; parvarish qilish; o‘stirish; o‘rgatish; ilm berish]. 1. Ta’lim, axloq-odob va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. 2. Insonda ish-hunar, odob-axloq va sh.k ni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo‘lgan xislatlarga ega bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo‘l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o‘zi. 3. Ma’lum tartib, usul asosida qarab, ishlov berib o‘stirmoq; parvarishlamoq.

“Metod” [yunoncha “methodos”- tadqiqot usuli, yo‘li]. 1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. 2. Usul, uslub. “Metodik” metod va metodikaga oid; uslubiy.

“Metodika” [yunoncha - methodike]. 1. Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi. 2. O‘qitish usullari haqidagi ta’limot.

Ta’lim-tarbiya mohiyatan bir-biriga uzviy bog‘liq yaxlitlikni ifodalaydi. Ularni biri haqida gapirganda albatta ikkinchisini ham mavjud deb hisoblanadi, birini ikkinchisidan muhim, ustuvor yoki bиринчи darajali deb talqin etish xatodir. Shu bois biz quyida ta’lim-tarbiya metodlari emas, balki ta’lim metodlari deb foydlanamiz.

Ta’lim metodlari pedagogik jarayonda ko‘zlangan maqsadga binoan pirovard natijani ta’min etuvchi usul (yo‘l) lar tizimidir. Ta’lim metodlari mazmuni va mohiyatida pedagogikaning qonuniyatları, prinsiplari, maqsadlari, mazmuni, tashkil etish shakllari kabilar o‘z ifodasini topadi.

Real pedagogik jarayonda metodlarning qanday turlari bor yoki yo‘qligini bilish emas, balki ulardan samarali foydalana olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim metodlari yoki ta’lim jarayonini amalga oshirish usullari o‘qitish va o‘qishdan iborat binar xususiyatga ega bo‘lganligi uchun M.I. Maxmutov uni ikki tomonlama binar, ya’ni o‘qitish vao‘rganish jihatlariga deb e’tirof etadi.

O‘qitish: maqsad qo‘yish va ta’lim oluvchilar faoliyatining mazmuni va tartibini aniqlash; o‘zining o‘qituvchilik, o‘rgatuvchilik faoliyati, ta’lim oluvchilarning bilish va o‘quv-ishlab chiqarish faoliyatlariga rahbarlik qilish; nazorat qilib baholash; xulosa chiqarish kabilarni ko‘zda tutadi.

O‘qish-tahsil olish; diqqat bilan tahlil qilib nazaridan o‘tkazmoq; mutolaa qilmoq; ma’lumotga ega bo‘lish kabilarni anglatadi.

Yuqorida zikr etilgan metodlar guruhlarining har biri ham qator aniq ta’lim metodlaridan tashkil topadi. Masalan o‘quv-bilish faliyatini tashkil etishda eng avvalo og‘zaki (so‘zlab berish, ma’ruza, suhbat va shu kabilar), ko‘rsatmali (priborlarni namoyish etish, illyustratsiyalarni ko‘rsatish kabilar), amaliy (mashq laboratoriya tajribalari, mehnat xatti-harakatlari va boshqa) metodlar qo‘llaniladi. Bu barcha metodlar o‘quv axborotini o‘qituvchi tomonidan uzatish va ta’lim oluvchilar tomonidan idrok etish: eshitish, kuzatish, amaliy xatti-harakatlar orqali his etishni ta’minlaydi. Shu o‘rinda o‘quv axborotini jonli nutq, ya’ni o‘qituvchining so‘zi orqali ta’lim oluvchilar ongiga yetkazish eng muhim o‘rin tutishini yodda saqlash zarur.

O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari induktiv, deduktiv va traduktivga bo‘linib, o‘quv materiali qanday mantiqiy tartibda yoritilishini, ya’ni xususiydan umumiyya yoki aksincha umumiyyadan xususiyga shuningdek, xususiydan xususiyga va umumiyyadan umumiyya tomon rivojlanishini belgilaydi.

O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari guruhi o‘z navbatida muammoli izlanuvchan va mahsulsiz metodlarga bo‘linadi. Bunda o‘quv materiali ta’lim oluvchilar tomonidan muammo bo‘yicha mustaqil fikr yuritish yoki o‘qituvchi uzatgan tayyor axborotlarni faqat xotirada saqlab qolishni ko‘zda tutadi. Shunday qilib, birgina suhbatning o‘zi og‘zaki, deduktiv va izlanuvchan ta’lim metodi sifatida talqin etilishi mumkin bo‘ladi. Ta’lim metodlari ta’lim oluvchilar o‘quv-bilish faoliyatining mustaqillik darajasiga ko‘ra: o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida yoki mustaqil holda o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlariga bo‘linadi. Bu metodlarning har biri ham ma’lum ma’noda ta’lim oluvchilarni o‘quv-bilish faoliyatiga qiziqtirishi va faollashtirishi mumkin. Shuningdek, pedagogik amaliyatda ta’lim oluvchilarning o‘qib-o‘rganishga qiziqishini ta’minalash va o‘qib-o‘rganishga bo‘lgan javobgarligini oshirish yo‘nalishida ham qator maxsus metodlar qo‘llaniladi. Bunday metodlar o‘qib-o‘rganishga qiziqtirish va motivlashtirish nomi bilan yuritilib, ularga bilish o‘yinlari, o‘quv munozaralari, rag‘batlantirish, o‘qishda muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, o‘quv talablarini qo‘yish kabilar misol bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlar ta’lim-tarbiya ishida muvaffaqiyatlarga erishish uchun nazorat, o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Nazorat: og‘zaki, yozma, laboratoriya, individual, yoppasiga, mashinali, mashinasiz, bevosita, bilvosita kabi turlarga bo‘linadi.

O‘qituvchi barcha metodlarning imkoniyatlari va qo‘llanish hollarini yaxshi bilgan holdagina ulardan o‘z o‘rnida foydalanib, yuqori samaradorlikka ega bo‘lishi mumkin. Bunda, eng avvalo, shuni yodda tutish zarurki, pedagoglar tomonidan ta’lim metodlari turli darajalarda tanlanadi. Ularning ba’zi birlari faoliyatida shakllangan (stereotip) taqlid qilish, ya’ni bir qolipda ish yuritishga asoslansalar, ikkinchilari ichki his-tuyg‘uga asoslanib, uchinchilari o‘zaro aloqadorliklarga binoan, to‘rtinchilari qo‘llab-tekshirib ko‘rish kabilarga ko‘ra ta’lim metodlarini tanlaydilar. Hayot esa ta’lim metodlarini pedagog tomonidan ilmiy -metodik tavsiyalar asosida ongli ravishda ilg‘or pedagoglar tajribalariga

tayangan, o‘z imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashni talab etadi. Ta’lim metodlari majmuasi haqida tasavvurlar har doim aniq bo‘lishi zarur, chunki ulardan ma’lum holatda foydalanish muvaffaqiyatli bo‘lsa, boshqa holatda ular shart-sharoitga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Masalan, og‘zaki metodlar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni uzatish bilan birga ta’lim oluvchining abstrakt tasavvurlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga ulardan bir tomonlama, ya’ni monologik hamda ko‘rsatmali obrazli va hatti-harakatlar orqali ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materialini tushuntirishni qiyinlashtiradi. Chunki ular yetarli darajada ko‘nikma va malakalarni rivojlantirmaydi. Ularning eng asosiy kamchiligi qisqa vaqt davomida bir marta zuhr bo‘lishi ya’ni takrorlanmasligidir.

Ko‘rsatmali metodlar axborotni ko‘rsatmali obrazli idrok etishga qaratilib, ta’lim oluvchilarda ta’lim samaradorligini oshiradi. Lekin undan haddan tashqari ko‘p foydalanish abstrakt tafakkur, nutq va o‘z fikrini bir-biri bilan bog‘lash mahoratini rivojlantirishga imkon bermaydi.

Amaliy metodlar kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning asosi bo‘lib, nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi. Lekin bu metodlar bilan ham barcha masalalarining yechimini topish mumkin emas. Chunki ulardan foydalanilganda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish nutq va abstrakt tafakkurni rivojlantirish imkoniyatiga nisbatan past darajada bo‘ladi.

Mahsulsiz ta’lim metodlaridan o‘quv axborotini tez fursatda xotirada puxta saqlab qolish maqsadida foydalaniladi. Lekin ular ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanuvchan o‘quv-bilish faoliyatida ishtirok etishlariga imkon bermaydi. Shuning uchun ham ulardan amaliyotda dasturlashtirilgan ta’lim sharoitida testlar shaklida foydalaniladi. Mahsulsiz ta’lim metodlari o‘quv materialini elementlari bo‘yicha xotirlab qolish va o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishini individuallashtirish, bilimlarni individual o‘zlashtirish sur’atini aniqlash maqsadlarida foydalaniladi. Dasturlashtirilgan ta’lim elementlari odatda o‘quv materiali mantiqan tugallangan qismlarga bo‘lingan hollarda ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini bevosita boshqarish kerak bo‘lgan va tez fursatlarda axborotni o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash zarur bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi.

Shunga qaramasdan bunday metodlardan foydalanish nisbatan ko‘p vaqt talab etadi. Zarur darajada tafakkurlash qobiliyatini rivojlantirmaydi. Mustaqillik, izlanuvchan faoliyat ko‘rsatishga imkon bermaydi. Ulardan haddan tashqari ko‘p foydalanish materialning asl mohiyatiga tushunmay, ko‘r- ko‘rona yod olishga olib keladi. Demak, ulardan muammoli izlanuvchan metodlar bilan uyg‘un holda foydalanish ko‘zlangan natijani beradi.

Muammoli izlanuvchan ta’lim metodlaridan ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanuvchan o‘quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi. Bunday metodlar o‘quv materialini mustaqil ravishda mohiyatiga tushungan holda o‘zlashtirilishiga imkon beradi.

Ulardan asosiy tushuncha, qonun va nazariyalarni shakllantirishni ko‘zda tutuvchi materiallarni o‘rganishda foydalanish samaralidir.

Muammoli izlanuvchan metodlar daliliy materiallarni bayon etish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, yangi materialni o‘rganish, mazmuni ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan, ob’ektlar orasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini ko‘rsatish, umumglashtirishlar talab etilgan hollarda yuqori samara bermaydi.

Ta’lim oluvchilarning mustaqil ishi – bu faoliyat ideal, chunki kelajakda mutaxassis butun umri davomida ana shunday faoliyat bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida mustaqil ishning o‘rni va rolini oshirishga harakat qilish zarur. Lekin u o‘z-o‘zicha emas, balki o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida bajariladigan ishlar bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda ko‘zlangan natijani beradi.

Bundan mustaqil ishlarga ma’lum tayyorgarlik ko‘rish zarurligi kelib chiqadi, aks holda mahsulsiz o‘quv vaqtlar sarfiga olib keladi. Uning haddan oshib ketishi ham ortiqcha zo‘riqishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mustaqil ishlarning hajmi o‘quv materialining xususiyatlari, ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, yaratilgan shart-sharoit kabilarga binoan tanlangan bo‘lishi zarur. Quyida Yu.K. Babanskiy taklif etgan fikr- mulohazalar asosida ta’lim metodlaridan oqilona foydalanish jadvalini keltirish bilan kifoyalanamiz (1-jadvalga qarang).

Ta’lim-tarbiya metodlarini tanlashga yordam beruvchi omillar:

- birinchidan, mashg‘ulotlarning maqsad va vazifalari;
- ikkinchidan, o‘quv materiallarining xususiyatlari;
- uchinchidan, ta’lim oluvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, tayyorlik darajalari kabilalar;
- to‘rtinchidan o‘qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi, o‘z ishiga ijodiy yondashishi, javobgarlikni his etishi kabilalar;
- beshinchidan, shart-sharoit;
- oltinchidan, ajratilgan vaqt;
- yettinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonining moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy ta’minoti va shu kabilalar.

## Ta'lim metodlaridan oqilona foydalanish (1-jadval).

Qanday hollarda oqilona qo'llash mumkin	Og'zaki metodlar	Ko'rsatmali metodlar	Analiy metodlar	Mahsulsiz metodlar	Izlanuvchan metodlar	Deduktiv metodlar	Mustaqil ravishda o'z ustida ishlash metodi
Bu metod qanday masalalarning yechimini topishda muvaffaqiyati qo'llaniladi?	Nazariy va dahlily bilmlarni shakllantirishda	Kuzatuvchanlikni rivojlanitirish, o'rganiladigan masalalarga nisbatan diqqat- e'tiborni oshirish	Analiy ko'nikma va malakalami rivojlanitirish uchun	Bilim va malakalarni shakllantirish uchun	Mustaqil tafakkurlash, tadqiqotchilik malakalari, ishga ijodiy yondashuvlarni rejalashtirish uchun	Umumlashtirish va induktiv xulosha chiqarish malakalarini rivojlanitirish uchun. (umumiyyatdan xususiyiga va xususiyatdan umumiyyaga qarab xulosha chiqarish).	O'quv-bilish faoliyatida mustaqilknki rivojlanitirish, o'quv ishlarni tashkil etish malakasini shakllantirish
Bu metoddan o'quv materialining nazmuni qanday xususiyatlarga ega bo'lganda muvaffaqiyatlidi foydalanimadi?	Material nazarイヤ axborot harakteriga ega bo'lgan paytarda	O'quv materialini ko'rsatmali vositalar yordamida ta'lim oluvechilarga uzatish imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda	Mavzuning maznuni amaliy mashiq, tajriba-sinovlarini o'tkazish, mehnat vazifalarini bajarish kabilamini o'ziga qanrab olgan bo'lsa.	O'quv materialini juda sodda yoki haddan tashqari qiyin bo'lsa	O'quv materialining maznumi o'rtacha qiyinlikka ega bo'lsa	O'quv materiali darslikda batafsil yoki deduktiv bayon etilgan bo'lsa	O'quv materialini mustaqil o'rganish imkonini mayjud, maznunu tushunari bo'lsa
Bu metoddan ta'lim oluvechilarning qanday xususiyatlarni rivojlanitirishda foydalanimadi? (qo'llaniladi)	Ta'lim oluvechilar og'zaki axboromi o'zlashtirishga tayyor bo'lgan hollarda	Ta'lim oluvechilarga ko'rsatmali materiallarni tushunarlari bo'lgan hollarda	Ta'lim oluvechilar amaliy vazifalarini bajarishga tayyor bo'lsalar	Bu mavzuni ta'lim oluvechilar muammoli o'rganishga ta'lim oluvechilar tayyorlangan bo'lsa	Ushbu mavzuni ta'lim oluvechilar muammoli o'rganishga tayyor bo'lsalar	Ta'lim oluvechilar deduktiv xulosha chiqarishga tayyorlangan bo'lsalar	Ta'lim oluvechilar ushbu mavzu materialini mustaqil ravishda o'rganishga tayyor bo'lsalar
Ushbu metodni qo'llash uchun o'qituvchi qanday imkoniyatlarga ega bo'lishi zarur?	O'qituvchi boshqa metodlarga qaraganda ushbu metodni puxta egallagan paytda	O'qituvchi kerakli ko'rsatmali qo'llanmalarga ega bo'lgan yoki ularni o'zi tayyorlay olish imkoniyatlari mavjud bo'lsa	O'qituvchi amaliy mashqlarni tashkil etish uchun o'quv moddiy qo'llannalar didaktik materiallarga ega bo'lsa	Ushbu mavzuni muammoli o'rganish uchun o'qituvchi yetarli vaqtiga ega bo'lsa va izlanuvchan metodlardan unumli foydalana olsa	Mavzuni muammoli o'rganish uchun o'qituvchi deduktiv metodlardan talab darajasida foydalana olsa	Mustaqil ishlarni tashkil etish uchun didaktik materiallar va yetarli vaqt mayjud bo'lsa	

**3. Innovatsion (istiqbolli) ta’lim texnologiyalari.** Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. **Innovatsiya** – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minalash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo’llanishi”<sup>1</sup>.

A.I.Prigojining fikriga ko‘ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg‘un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan iinovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodgers o‘z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan.


**Innovatsion ta’lim** (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo’llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta’lim innovatsiyalari** – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo’llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi (2-rasm).

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Конигил / 4-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 169-бет.



Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi.

### Nazorat savollari.

1. Dars (o'quv mashg'ulot)ta'limning asosiy shakli sifatida ekanligini izohlang.
2. Oliy ta'lim tizimida mashg'ulotlarning qanday turlaridan keng foydalaniadi?

3. Pedagogik jarayonda ta’lim metodlari va vositalarining didaktik imkoniyatlarini bayon qiling
4. O‘qitish jarayonida ta’lim metodlari qanday mezonlar asosida tanlab olinadi.
5. Ta’lim metodlar klassifikatsiyasini bayon qiling.
6. Innovatsion (istiqbolli) ta’lim texnologiyalari haqida sizning fikringiz.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Rozov M. A. K metodologii analiza etosa nauki // Filosofiya nauki. Vyp. 11: Etos nauki na rubeje vekov. M.: IF RAN, 2015. S. 137—154.
2. Mirskaya Ye.Z., R. K. Merton i etos klassicheskoy nauki // Filosofiya nauki. Vyp. 11: Etos nauki na rubeje vekov. M.: IF RAN, 2015. S. 19.
3. Didaktika visshey shkolы: ucheb, posobie dlya stud. visssh. ped. ucheb. Zavedeniye /V. A. Popkov, A. V. Korjuev. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2018. S. 31.
4. Korshunova N. L. Ob’ektivnost znaniya v pedagogike i yee ob’ekt v kontekste razvitiya sovremennoy nauki// Psixologo-pedagogicheskiy poisk. 2019. № 2 (14). S 43—61, s. 46.

#### **4-Mavzu: Oliy ta’lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari**

##### **Reja:**

1. Oliy ta’lim didaktikasining asosiy kategoriyalari.
2. Didaktikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Oliy ta’lim didaktikasining asosiy kategoriyalari.** Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Zamonaviy didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat:

**Ta’lim** – o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘sirish, dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

**Ta’lim jarayoni** – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilib, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

**Bilim olish** – idrok etish, o‘rganish, mashq qilish, muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarning mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

**O‘quv fani** – ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan, o‘zida muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiyligi yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba.

**Dars** – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

**Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Ko'nikma** – olingen bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar, shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

**Malaka** – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

**Ta'lim tizimi** – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdag'i o'quv-tarbiya muassasalari majmui.

**Ta'limni boshqarish** – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish, istiqbollarini belgilash.

**Ta'lim maqsadi** – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

**Ta'lim mazmuni** – shaxsning har tomonlama rivojlanishi, unda boy dunyoqarashni, e'tiqodni tarkib toptirish, bilishga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'luvchi aniq belgilangan, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarning hajmi.

**Ta'lim jarayonini tashkil etish** – o'quvchilarga ilmiy bilimlarni berish maqsadida o'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyatni tashkiliy-metodik jihatdan uyshtirilishi.

**Ta'lim turlari** mazmuni, tashkil etilish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan vositalari, ta'lim oluvchilarining yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rinishlari.

**Ta'lim tamoyillari** – ta'lim nazariyasining muhim, asosiy, yetakchi, ustuvor g'oyalari, qoidalari.

**Ta'lim shakli** – ta'lim jarayonining tashkiliy qurilishi.

**Ta'lim metodlari** – o'quv jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi uslublar majmui.

**Ta'lim vositalari** – o'qitish samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari va qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, proektor, magnitafon, video magnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter, b.) va sub'ektiv (o'qituvchi nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti, faoliyatiga oid misollar va h.k.) omillar.

**Didaktikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.** Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida uning rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta'minlanadi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida sodir bo'lish sabablarini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etishni taqozo etadi. Shu boisdan ham zamonaviy didaktika Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy

tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

Pedagogik tahlil. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Suhbat metodi pedagogik kuzatish chog‘ida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, vaziyatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub’ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalg etishga yordam beradi.

Suhbat individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida o‘quvchilarining imkoniyatlari to‘la namoyon bilishga erishish muhim.

Anketa (fransuzcha “tekshirish”) metodi yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Bu metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi: 1) ochiq turdagи savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar); 2) yopiq turdagи savollar (“ha”, “yo‘q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar).

Intervyu respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi. Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyatni mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim muassasalarida uzlusiz ta’limni tashkil etishga oid hujjatlar talablarining bajarilish holatini o‘rganish, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Test metodi respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat bo‘ladi: 1) ochiq turdagи savollar (batafsil javob berish imkonini beradigan savollar); 2) yopiq turdagи savollar (“ha” yoki “yo‘q”, “ijobiy” yoki “salbiy” tarzdagi javoblarga asoslanadigan savollar); 3)

to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (to‘g‘ri deb topilgan javob varianti belgilanadi).

Bolalar ijodini o‘rganish metodi – o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma’lum fan sohalari bo‘yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – kundalik, insho, yozma ish, referat va hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metod ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik kuzatish. Uni qo‘llash jarayonida ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik tajriba (“eksperiment” lotincha – “tajriba qilib ko‘rish”) metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyatda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Pedagogik tajribaning quyidagi turlari mavjud:

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiylashtirilishi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik statistika tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiylashtirilishi tahlili, tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Muammo holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtida pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Kyivirlyag, Rokich, V.Bespalko va V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

## **5-Mavzu: O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi**

### **Reja:**

1. O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili.
2. Pedagogik faoliyatni tashkil qilish malakasi.
3. Mamlakatimizda Uchinchi Rennesans haqida ma’lumotga ega bo‘lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish

**O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi tahlili.** Har bir fanning tarixiy taraqqiyoti, erishilgan yutuqlar, uning nazariy va metodik

assosining o‘zi metodologik xususiyatga ega. Ma’lumki, ko‘pgina pedagogik tadqiqotlarda fanning rivojiga hissa qo‘sghan mutafakkirlarning ta’limoti metodologik asos sifatida ifodalanadi. Zero, ta’lim – tarbiya kishilik jamiyatni paydo bo‘lgandan boshlab paydo bo‘lgan, u tarixiy, umuminsoniy va milliy harakaterga ega. Bu boradagi tajribalar, g‘oyalar, ta’limotlar, qonuniyatlar umumlashmasi yozma va og‘zaki, hayotiy an’analar, qadriyatlar shaklida kelajak avlodlarga o‘tib kelgan. Har bir davr, xalq, uning olimlari fanning rivojiga o‘zining hissasini qo‘sghan, g‘oyalarni to‘ldirgan, tahlil etgan. U yoki bu sohada ilmlarning tarixiy taraqqiyot tahliliga fan tarixi deyiladi. Fan tarixini o‘rganilishi haqida professor N. Shermuhammedova: “XIX asrgacha fan tarixi alohida muammo sifatida na faylasuflar, na boshqa soha olimlari tomonidan yetarli o‘rganilmagan edi” degan xulosaga keladi va “Fan tarixini o‘rganish XX asrda boshlangan bo‘lsada, unga azaldan falsafaning yoki umumiyligi madaniyat nazariyasining bir bo‘limi sifatida qaralgan” - deb yozadi. Bu fikr ayrim fanlargagina taalluqli bo‘lishi mumkin. Lekin IX asrdayoq Abu Nasr Forobiyning Arastu asarlarining tahlili, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston” asarlari, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning adabiyotshunoslik haqidagi tazkiralari, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida 50 podsholik davrida ta’lim-tarbiyani yoritilishi fanlar tarixi haqida tarix emasmi?.

**Pedagogik faoliyatni tashkil qilish malakasi.** Didaktik g‘oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g‘oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o‘qitish nazariyasi va amaliyotining umumiyligi qonuniyatidir. Ta’lim turlari (yunoncha species) alohida, o‘ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik tizimlar turlari bo‘yicha farq qiladi, keng qo‘llaniluvchi tizimlar an’anaviy tizimlar deb ham ataladi. Ta’lim turlari o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvni ifodalaydi.

**Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim** nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko‘rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

**Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim** turi vaqtini tejash, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarining kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta’lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta’minkaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya’ni, “tayyor” bilimlarni berish va ta’lim oluvchilarini bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldar fikrlashdan ozod etish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi.

**Muammoli o‘qitishda** o‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta’lim oluvchilarining ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki ta’lim oluvchilarini faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.

Bunday o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O‘quv muammosi bir qadar qiyin, lekin talabalarning kuchi yetadigan bo‘lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan bиринчи bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida talabalar savol bo‘yicha mavjud muammoni ko‘rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni turli usullar bilan egallahga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi (“Men nima qilishni bilaman!”). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

**Dasturlashtirilgan o‘qitish** harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o‘quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o‘qitish asosini kibernetik yondoshish tashkil etadi. Unga binoan o‘qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturlashtirilgan o‘qitish yangi didaktik, psixologik va kibernetik g‘oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U talabaning bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarini oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiradi.

**Kompyuterli ta’limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:** o‘qitish dasturlarining sifati; hisoblash texnikasining sifati.

O‘qishni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ayni vaqtida ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruqli, leksion-seminarli va auditoriyadan tashqari. Ular talabalar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; jamoaviy; leksion-seminarli.

O‘quv mashg‘uloti tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan rivojlantirilgan. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir mashg‘ulotning bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘ratadi: ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va talabalarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi. Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash.

Mashg‘ulotni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo‘shti. U o‘qituvchi va talabalarning faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, ularning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Mashg‘ulot o‘tkazish tizimini alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o‘rtasida o‘zar o‘quvda munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o‘quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o‘zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o‘rtacha darajada o‘zlashtiruvchilar uchun mo‘ljallanganligi, bo‘sh o‘zlashtiruvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o‘zlashtiruvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur’atining ortga surilishi; o‘qituvchi uchun o‘qitish mazmuni va o‘qitish sur’atlari hamda metodlari bo‘yicha individual ishlarni tashkil etish.

OTMdta ta’limning tashkiliy shakli sifatida **auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulot** – dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlaydi va ta’limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobjiy yechimini topishga imkon beradi.


#### **OTMdta zamonaviy auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:**

1. Fanning ilg‘or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mashg‘ulotni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlarini asosida tashkil etish.
2. Barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash.
3. Talabalarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.
4. Fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish.
5. Ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, kompetensiyalarning rivojlanish darajasiga tayanish.
6. Shaxsnинг har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish.
7. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsiyonalligi.
8. Pedagogik vositalardan samarali foydalanish.
9. Zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish.
10. Mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish.
11. Mashg‘ulotni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va taxmin qilish.

Aksariyat mualliflar “ta’lim metodlari talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari” degan qarashga yon bosadilar. Demak, **ta’lim metodlari** ta’lim jarayonida qo’llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmuidir.

Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o‘zlashtirish yo‘llari ifoda etiladi, o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, birinchidan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, ikknchidan, ta’lim faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta’lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi:



### **Ta’lim metodlarining asosiy funksiyalari**

Bu funksiyalar ta’lim metodini qo’llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o‘zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o‘qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

“Ta’lim metodi” tushunchasi bilan birga ko‘p hollarda “metodik usul” (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo’llaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanadi.

Ta’lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi: *didaktik maqsad asosida; ta’lim mazmuni asosida; talabalarning o‘quv ko‘nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida; o‘qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.*

Didaktikada munozaralarga sabab bo‘layotgan yana bir muhim ob’ekt ta’lim metodlarining tasnifidir. Ta’lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo‘yicha tizimlashtiriladi.

Og‘zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiyligi madaniyati, mantiqiy fikrashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Ushbu metodlar talabaning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos.

**Hikoya** o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Metodning samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nuqt mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, talabalarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Shu bois hikoya mazmuni talabalarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga e’tiborni qaratadi. Hikoya qisqa bo‘lishi hamda talabalarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg‘otishi kerak.

Suhbat metodi fanga qadimdan ma’lum, xatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi talabada faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallahsga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha talabalarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, talabalarga ular yuzasidan batatsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, talabalarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilih deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat talabalarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, talabalar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya’ni, **kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat** tarzida tashkil etiladi.

**Kirish suhbat** o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining talabalar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat.

**Yakuniy suhbat** talabalar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

**Katexizism (qisqa bayonli) suhbat** – talabalarning boshlang‘ich bilim darjasini va ularning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun dars avvalida yoki so‘ngida qo‘llaniladi.


**Evristik suhbat** yangi bilimlarni muammoli tarzda egallahsga yo‘naltiriladi. Savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, ular talabalarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta’minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga rag‘batlantirsin.

**Tushuntirish** o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin o‘rinlariga alohida urg‘u berilib, mazmuni ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’ruza mazmuni murakkab tizimlar, hodisalar, ob’ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalardan tashkil topadi va u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi, bir vaqida talabalarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi.

Ma’ruzaning samaradorligini ta’minlash **shartlari** quyidagilardan iborat: ma’ruza rejasini tuzish; talabalarni ma’ruza mavzusi, rejasи bilan tanishtirish; ma’ruza bandlarini mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etish; har bir bandini qisqacha xulosalash; ma’ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o‘tishda mantiqiy aloqadorlikni ta’minlash; ma’ruzani muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunja nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; talabalarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish; ma’ruzaning muhim jihatlarini ochib berish; talabalar ma’ruzaning asosiy o‘rinlarini yozib borishlariga imkon yaratish; muhim o‘rinlarni ta’kidlab ko‘rsatish; ma’ruza mazmunini ko‘rgazmali tarzda (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalardan foydalangan holda) yoritish.

Ta’lim sifatini oshirishda **ko‘rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali metodning quyidagi turlari mavjud:



### Ko‘rgazmali metodning turlari

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko‘rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko‘rishi, faqat 3 foizigina eshitishni ta’minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptori yordamida o‘zlashtiriladi. Demak, o‘zbek xalqi tomonidan ko‘p bora qo‘llaniladigan “Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi” maqoli ilmiy asosga ega ekan.

**Namoyish metodi** o‘rganilayotgan ob’ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi.

Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ogra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning sub'ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois, bugungi kunda turli virtual laboratoriyalarni tashkil qilish, axborot ta'limiy elektron resurslaridan foydalaniladi.

Metod yordamida o'qituvchi talabalarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. **Tasvirlash (illyustratsiya)** metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi.


**Tasvirlash** narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni talaba yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini to'laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rnlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi talabalarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (otosurat, jadval, tabiiy ob'ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

**Amaliy ishlar metodi** o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi, bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi.

**Amaliy ishlar metodi** talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi:



Qayd etilganidek, ushbu metodlar talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo‘ladi.

**Mashq** – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

**Yozma mashqlar** – ta’limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi.

**Grafikaviy ishlar** jihatlariga ko‘ra yozma ishlarga o‘xshash bo‘lib, ulardan asosan texnik jarayonlarda keng ko‘lamda foydalilanadi.

Mashqlarning bajarilish samarasи quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo‘ladi: **mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo‘yicha takrorlanishning to‘g‘ri taqsimlanishi**.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi; o‘qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o‘quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda talabalar ovoz chiqarib (masalan, til o‘zlashtirish (ingliz, yapon, xitoy va b.) tillarni o‘zlashtirish mashg‘ulotlarida o‘quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo‘ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko‘nikma va malakalarni egallahsga imkon beradi.

**Laboratoriya ishlari** talabalarning jihoz, maxsus uskuna, quroq hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod talabalarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtini sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar talabalarning yuqori

darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyan dan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod talabalarining mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarini bajaradi.

Oliy ta’limda talabalarining egallashlari lozim bo‘lgan kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’limga maqsadli jalg qilish uchun etarli psixologik-pedagogik sharoitlar zarur. Bunga quyidagilar kiradi:

- asosiy ta’lim dasturlari mazmunini amaliy yo‘naltirilgan vazifalar bilan boyitish;
- kasbiy va o‘quv jarayonida kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- kontekstli kompetensiya yondashuvi asosida mustaqil ishni tashkil etish;
- ta’lim natijalarini muntazam ravishda kuzatib borish.

Oliy ta’limda innovatsion ta’limni amalga oshirish shakllari va usullari: ta’lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturlashtirilgan texnologiyalar, strim texnologiyalari va b.

Bilimlarni tizimlashtirish va ko‘rgazmali namoyish etish texnologiyalari sirasiga ma’ruza-vizualizatsiya, mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxatini tuzish, jadvallar sxemalarini to‘ldirish, referatlar tayyorlash, diagrammalar, chizmalar, texnologik xaritalar bilan ishslash, mavzu bo‘yicha adabiyotlarni tizimlashtirish, tuzilgan javob bilan dasturlashtiriladigan so‘rov kiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: dasturlashtirilgan ta’lim, interfaol dialog, o‘quv ma’lumotlarini kompyuterda vizualizatsiya qilish, kompyuterda modellashtirish, o‘quv dasturlaridan iborat.

Ta’limni rivojlantirish texnologiyalari: muammoli ma’ruza, ma’ruza-munozara, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, tashkiliy va aqliy o‘yinlar, o‘quv va kasbiy matnlarni tanqidiy tahlil qilish, loyihamar usuli, ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha treninglar, diagnostik o‘quv seminari, rivojlanish diagnostikasi, amaliyotga yo‘naltirilgan vazifalar.

Oliy ta’lim didaktikasi rivojlanishining hozirgi holati o‘qitishda axborot texnologiyalarining roli oshib borishi bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish odatiy texnologiyalarga qaraganda ancha tezroq. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xususiyatini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, o‘qitishning yanada samarali usullarini qo‘llash, shuningdek, ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

**Mamlakatimizda Uchinchi Rennesans haqida ma’lumotga ega bo‘lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish.** O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni loyihasi asosida «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi» hamda «Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

Shundan kelib chiqqan holda, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»da maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, 2022–2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024–2025 o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimida qonun buzilishi holatlarining oldini olish, maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy qonunbuzarliklar va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida yagona axborot tizimini yaratish kabi dolzarb vazifalarning belgilangani muhim ahamiyatga ega.

Zero, Avloniy bobomiz ta’kidlaganidek: «Ta’lim-tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir». Bu yondashuv har qanday zamon va makonda ham tarbiya masalasiga dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

Agar keyingi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar chuqurroq tahlil etilsa, ta’lim, ayniqsa birlamchi tarbiya o‘chog‘i sanalgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu Yangi O‘zbekistonda ham ta’lim-tarbiya «hayot-mamot» masalasiga aylanganidan dalolat, albatta. Zero, XXI asr globallashuv jarayonlarida ma’naviy tanazzul insoniyatning tarbiya borasidagi xatolari natijasi, deya e’tirof etilmoqda ekan, davr bizdan maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, ogohlik va sezgirlikni oshirishni talab etayotganini o‘z vaqtida anglab yetmog‘imiz zarur.

Tan olish kerak. Bugunga kelib, rivojlangan va demokratik davlatlarda ham yoshlar tarbiyasi masalasi kun tartibidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Respublikamizda pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar va ularning maktabi vakillarini bir qator savollar qiziqtirib kelmoqda: Nima uchun xalqimiz tarixida ikkita katta Uyg‘onish davri bo‘lgan-u, biz hali ham “uyg‘onmayapmiz”? Avvalgi ikkita Renessansning siri nimada edi? Uchinchi Renessansni kelajakda tarixchilar qaysi davrga nisbat berishar ekan?

Ushbu savollarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlaridan birida ularga javob bo‘ladigan quyidagi muhim da’vatkor fikr bildirilgan: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”.

Darhaqiqat, ajdodlarimiz yaratgan Renessanslarning siri o'sha davrda yaratilgan muhit va sharoitlar bilan bog'liq edi. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda IX–XII asrlar Uyg'onish (Renessans) davri madaniyati shakllanib, ravnaq topgan davr sifatida tarix sahnasidan joy oldi. Albatta, bunday atalishning o'ziga xos sabab va ko'rinishlari bor edi.

Xo'sh, Renessans o'zi nima? Uning yuzaga chiqishiga qanday tarixiy sharoitlar turtki bo'ldi? Zaminimizdagи avvalgi ikkita Renessans poydevori qanday asoslarga ko'ra tashkil topgan?

*Renessans* fransuzcha so'z bo'lib, qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq ma'nosini anglatadi, madaniyat, ilm-fan, san'at, ta'lim-tarbiya, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli bir xillikdan keyin qayta rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimining yangilanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Birinchi Renessans Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda ro'y berdi. Bu davrda davlatni boshqarish siyosati, yer-suv, soliqlar bilan bog'liq farmonlar chiqarilishi, olimlarga munosabat kishilarda ertangi kunga ishonch uyg'otdi. Ularning turli fan sohalari (matematika, astronomiya, tibbiyot, huquq, kimyo, geodeziya va dunyoning tuzilishi haqidagi ilmlar) ga qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi.

Odamlar bolalarini o'qitish uchun ustoz qidira boshladi. Bu davrda yashab ijod etgan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy kabi mutafakkirlar, imom Buxoriy, imom Termiziy kabi buyuk muhaddislar, Moturidiy, Abulmuin Nasafiy kabi mutakallimlar hamda ulardan tahsil olgan shogirdlari, safdoshlari tabiiy va aniq fanlar doirasida, islom dini osmonida yulduzday charaqladi. Ularning izlanishlari, kashfiyot va beqiyos g'oyalaridan butun dunyo bahramand bo'ldi. Bugungi kunga qadar ham ularning o'lmas merosidan foydalananib kelinmoqda.

Mintaqamizda Ikkinchи Renessans poydevori Amir Temur nomi bilan bog'liq. Sohibqiron bobomiz Ikkinchи Renessans homiysi, asoschisi sifatida tarixga muhrlandi.

Amir Temur markaziy boshqaruvgaga asoslangan qudratli sultanatni barpo etish bilan birga, mamlakatda madaniy-ilmiy yuksalish uchun ham munosib sharoit yaratishga intildi. Turli hududlardan diniy va dunyoviy ilm sohiblari, shoirlar, me'morlar, hunarmandlar va boshqalarni yig'ib, ular orqali mamlakatning ilmiy va madaniy qudrati yuksalishiga zamin yaratdi. Chingizzon davrida inqirozga uchragan madaniyat, ilm-fan, ma'rifat qayta shakllandı va taraqqiy etdi. Mamlakat obodlik va farovonlikka erishdi.

Ikkinchи Renessans davri, o'z navbatida, "Islom madaniyatining oltin asri" deya nomlandi. Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Sakkokiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Xondamir va boshqa olimlar, shoiru fuzalolar bu yurtning shuhratini dunyoga yoydi.

Bu ikki Renessans insoniyatga nimalarni tuhfa qildi? Butun dunyoga "Bayt ul-hikma", Xorazm Ma'mun akademiyasi kabi ilm dargohlarini taqdim qildi.

Yerning sharsimon ekani haqidagi g‘oya ilgari surildi, globus yaratildi. Yer radiusi ilm bilan isbotlandi. Tibbiyotning, algebra fanining tamal toshi qo‘yildi. Shaharsozlik, me’morlik sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlar dunyo ahlini lol qoldirdi. Birinchi Renessansda islom sivilizatsiyasining tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa, Ikkinchchi Renessansda yanada yuksalishiga yo‘l ochildi.

E’tibor bersak, har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat — davlatning e’tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta’lim-tarbiya ustuvor bo‘lgan. Bundan tashqari, insonlarda yuksak axloq, ilm-fanga tashnalik bilan birga, borliq sirlarini ochish va yangi ilm yaratishga ishonch kuchli bo‘lgan. Olimlar o‘zлari bilmagan holda, bugun tarixchilar e’tirof etayotgan Renessans davrining ijrochilariga aylangan.

Har ikki Renessans davrida davlat rahbarlari, olimu fuzalolar, birinchi navbatda, yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ma’naviyati, iymon-e’tiqodi masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Deyarli barcha allomalar asarlarida ta’limni tarbiya bilan uyg‘un olib borish lozimligi haqidagi fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida ilm va odob-axloq uyg‘unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o‘zaro do’stligi va hamkorligi, obod turmush to‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surgan. Mutafakkir “Bola badanining bo‘g‘inlari qotib, tili ravon chiqib, qulog‘i eshitish va gapni ma’qullah uchun tayyor bo‘lib, vujudi ilm va odob o‘rganishga hozir bo‘lganda unga ilm va odob o‘rgatish kerak”, deb yozadi.

Bugungi O‘zbekiston - kechagi O‘zbekiston emas. Ha, haqiqatan ham, shunday: bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas. Sal oldingi tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizdan ajraldik. Jadidlar qatag‘on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida ham turg‘unlik davri boshlandi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilar edi. Hech kim o‘z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning, esa, boshiga kulfat yog‘ilar edi. Ushbu siyo sat tufayli qanchadanqancha olimlar, shoiru yozuvchilarimiz “tug‘ildiyu, bo‘g‘ildi”.

Shukrki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday noxush holatlarga barham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladidi. Barcha sohalarda xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqda ruhiy ko‘tarilish, kelajakka ishonch paydo bo‘la boshladidi. Bu holat “milliy tiklanish”, deya nom oldi. Bugungi kunda esa, milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga o‘tdik. Endi, albatta, qandaydir o‘zgarish bo‘lishi lozim. Chunki biz ikkita Renessansni yaratgan buyuk ajodlarning vorislarimiz.

Buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Uchinchi Renessansga qadam qo‘yish bosqichi, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bosqichi, deb nomlab, quyidagicha ta’rifladi: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston - kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Ilmli-iymonli insonlargina Uchinchi Renessans ijodkorlari hisoblanadi. Uchinchi Renessans yaratish bir yoki ikki kishining ishi emas. Uni barpo etish uchun mamlakatning har bir vakili - xoh yosh bo'lsin, xoh katta - barcha birdek harakat qilmog'i lozim. Renessans yaratishga ishonish bilan birga, qattiq harakat ham qilish shart. Bu ham oson kechadigan jarayon emas. Chunki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun dastlab ma'naviyatli insonlar qatlamini shakllantirish kerak. Bunday insonlarda tafakkur hissiy ongdan ustun keladi, inson o'zini o'zi idora qila oladi. Ma'naviyat insonni ongli yashash va oljanob xislatlarga chorlaydigan noyob faoliyatdir. Uni yuksaltirish masalasi esa, ko'proq insonning o'ziga va unga ta'sir o'tkazadigan muhitga bog'liq.

Uchinchi Renessansni ilmli insonlar barpo etadi, dedik. Xo'sh, bunday insonlar o'zida qanday fazilatlarni jamlagan bo'ladi? Iymon kategoriyasi inson ongi va dunyoqarashi bilan bog'liq nodir fenomenidir. Bu tushunchaga ko'pchilik bir tomonlama, ya'ni diniy tushuncha sifatida qaraydi. Aslini olganda, iymon nafaqat diniy tushuncha, balki yuksak ijtimoiy-falsafiy ma'noga ega, bugungi kun, davr uchun o'ta zarur ijtimoiy qadriyat hamdir.

Demak, Uchinchi Renessansni qurishga intilgan ilmli, iymonli insonlar jamiyati qaror topgan bo'lsa, ular millat, irq, din tanlamaydi, aksincha, bir-biri bilan hamkor, hamnafas bo'lib, yangilanishlar yaratishga bel bog'laydi. Vatan uchun, xalq uchun yonib yashaydi. Birgina bugunni emas, kelajakni o'ylaydi. Farzandlar baxtu kamoli haqida qayg'uradi. Bu esa, jamiyat va davlat taraqqiyotiga olib keladi. Eng muhimi, o'sib kelayotgan yosh avlod shunday insonlardan ibrat olib, yuksak e'tiqodli bo'lib voyaga yetadi.

Iymon tushunchasini shartli ravishda ikki yo'nalishga bo'lish mumkin. Birinchidan, aniq hayotiy ehtiyojlarni qondirish zarurati asosida yuzaga keladigan g'oya, fikr, mulohaza, taxmin, farazga ishonchdan iborat ma'naviy-ruhiy holat. Ikkinchidan, muayyan dunyoqarashda ifodalangan g'oyalar, timsollarni haqiqat yoki haqiqat emas, deb qabul qilish asosida ongda, histuyg'uda yuzaga keladigan ishonch va ishonchsizlikdan iborat ruhiy holat.

Ma'lumki, har qanday fikr ham g'oya bo'la olmaydi. Uning g'oyaga aylanishi uchun odamlarni birlashtiradigan, o'z orqasidan ergashtira oladigan xususiyat bo'lishi lozim. Demak, Prezidentimizning "Uchinchi Renessans poydevorini yaratamiz", degan fikri g'oyaga aylanishi, ro'yobga oshishi uchun, avvalo, barchamiz birdek ishonishimiz, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borib, odamlarning dunyoqarashida ana shu g'oyaga ishonchni, ma'naviy-ruhiy holatni shakllantirishimiz lozim. Chunki muayyan dunyoqarash asosidagi g'oyalar, timsollarni ixtiyoriy yoki an'ana tufayli haqiqat sifatida qabul qilgan hamda muayyan jamoa oldida shu ishonchiga sodiq qolishga ichki his-tuyg'u bilan iqror bo'lgan inson o'sha g'oyalarda nazarda tutilgan munosabatlarning tashuvchisi, qadrlovchisiga aylanib, boshqalarni ham shunga da'vat qiladi.

O'zbekistonda XXI asrda Uchinchi Renessans davri barpo etilishiga ishongan odam qalban yurtimizni avvalgi Renessanslar davrida bo'lgani kabi, eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida ko'radi. Yurtimizning kelajagi nima sababdan buyuk bo'lishi, nega bunchalik ishonch bilan aytيلاتغاني haqida

tushunchasi bor, shuning uchun ham u xulosa chiqara oladi. Tarixdan ma'lumki, Ikkinchchi Renessans poydevorini yaratishda bosh bo'lgan Amir Temur ishni dastlab farzandlar tarbiyasidan boshladi. U yoshlar tarbiyasi borasida qator muhim ishlarni amalga oshirgan. Birinchidan, har bir qishloqda boshlang'ich ta'lif beruvchi maktablarni tashkil qildi. yoshlarning, pirovardida xalqning savodli, bilimli bo'lishiga erishdi. Mamlakatdagi ma'rifiy-tarbiya ishlar davlat tomonidan idora qilinishi zarur, deb hisoblab, o'zi bu ishda o'mnak bo'ldi. Ikkinchidan, ilmning rivojlanishida turli sohadagi kitoblarning ahamiyati kattaligini nazarda tutib, kitobni "Donishmandlikning asosi" va "Hayotni o'rgatuvchi", "Insonni tarbiyalovchi vosita" deb baholadi. Komil insonni shakllantirishda ta'lif bilan tarbiyani o'zaro aloqador deb tushundi.

Uchinchidan, davlat kelajagi bo'lgan yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanni sevadigan, harbiy bilimga ega, milliy g'ururli etib tarbiyalashni assosiy talablardan deb bildi. Fuqarolarni ham shunga ishontira olgan Sohibqiron mamlakatning ma'naviy, madaniy, ilmiy erishdi. Bu holat mamlakatda ma'naviy boy insonlarning tarbiyanishiga zamin yaratdi.

Bugungi Yangi O'zbekistonda ham ana shunday pedagogik shart-sharoit, ya'ni uzluksiz tizim yaratilmoqda. Yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam qilib tarbiyanmoqda. Ular tarbiyasida hal qiluvchi o'rin tutadigan uzluksiz ta'lif tizimida o'lkan o'zgarishlarga guvoh bo'lib turibmiz. Prezidentimiz boshchiligidagi "Bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni ta'minlash muhim" ligiga e'tibor qaratilmoqda.

Renessansning tayanch ustunlari bo'lmish biz — pedagoglar, tarbiyachilar, o'qituvchi, ziyojolar hamda ota-onalar bunday imkoniyat va shart-sharoitlardan foydalanib, ma'naviyati yuksak avlodni tarbiyalashimiz va iymonni qaror toptirish choralarini ko'rishimiz kerak. Avvalo, har bir shaxs, ayniqsa, yosh avlodni Uchinchi Renessans barpo etilishiga ishontirishimiz kerak.

Bugun Yangi O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" bosh g'oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo'yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko'nglida vatanparvarlik,



xalqparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, iymon-e'tiqodi butun bo'lgan har qanday shaxs targ'ibotchi bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Yangi O'zbekiston» gazetasiga bergan intervusida Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston konsepsiyalari nimani anglatishi haqida so'zlab berdi. Ularning so'zlariga ko'ra, O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga — Birinchi (ma'rifiy — IX-XII asrlar) va Ikkinci (Temuriylar — XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. «Bu - jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir», - deya qo'shimcha qilgan. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda", — deya xulosa qilgan Shavkat Mirziyoev.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATEALLARI

### 1-AMALIY MASHG‘ULOT: DIDAKTIKA FAN SIFATIDA (2 soat)

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda oliy ta’lim didaktikasining asosiy kategoriyalari, uning asosiy tamoyillari va ilmiytadqiqot metodlarini chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

**1-topshiriq.**“Chalkash zanjirlar” metodi asosida chap tarafagi ustunda ko‘rsatilgan didaktika tamoyillarga ustunning o‘ng tomonidagi berilgan mos ta’rifni toping va chalkashlikka barham bering

<b>Didaktika tamoyillari</b>	<b>Ta’rif</b>
<b>Ta’limni insonparvarlashtirish</b>	Bu tamoyil ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi jahon sivilizatsiyasi to‘plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Shuningdek, o‘quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirilishi; shaxs tomonidan tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri shart-sharoit yaratilishini ta’minlaydi.
<b>Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi tamoyili.</b>	Bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qiladi, tahsil oluvchilarining o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni nazarda tutadi.
<b>Ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili</b>	Bu tamoyil ta’lim mazmunini inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o‘sish holatida bo‘lgan o‘zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishga yo‘naltirilgan
<b>Ta’limning ilmiylik tamoyili.</b>	Inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmat qilishga asoslanuvchi tamoyil
<b>Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi tamoyili</b>	Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi.
<b>Ta’limning madaniyat</b>	Ta’lim oluvchilarga ularning yosh davrlarini

<b>bilan uyg‘unlik tamoyili.</b>	inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.
----------------------------------	--

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

### O‘qituvchining varianti


<b>Didaktika tamoyillari</b>	<b>Ta’rif</b>
<b>Ta’limni insonparvarlashtirish</b>	Inson va jamiyat o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmat qilishga asoslanuvchi tamoyil
<b>Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi tamoyili.</b>	Bu tamoyil ta’lim mazmunini inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o‘sish holatida bo‘lgan o‘zining shaxs sifatidagi qiyoferasini shakllantirishga yo‘naltirilgan.
<b>Ta’limning tizimliligi va izchillik tamoyili</b>	Bayon qilinayotgan o‘quv materialini mustahkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qiladi, tahsil oluvchilarning o‘zlashtirgan bilim va hosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini hisobga olib borishni nazarda tutadi.
<b>Ta’limning ilmiylik tamoyili.</b>	Bu tamoyil ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to‘plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Shuningdek, o‘quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirilishi; shaxs tomonidan tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri shart-sharoit yaratilishini ta’minlaydi.
<b>Ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi tamoyili</b>	Ta’lim oluvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, tahsil oluvchilarning qiziqishlari, idrok etishlari hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog‘liq.
<b>Ta’limning madaniyat bilan uyg‘unlik tamoyili.</b>	Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi.

**2-topshiriq.** Oliy ta’lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari haqidagi davra suhbatida ishtirok eting

### “DAVRA SUHBATI” metodi

**“Davra suhbati” metodi** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo’llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



**Belgilar:**


- 1-ta’lim oluvchilar
- 2-aylana stol

**3-topshiriq.** Keltirilgan ta’riflarni o‘qib, javobini toping va krossvordni to‘ldiring.


Ta’riflar:

- 1.O‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.
2. Avtomatlashgan, biron bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.
3. Egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik va kasbiy faoliyatda qo’llay olish layoqati.
4. O‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

5. O'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.



**Ўқитувчининг жавоби**



**4-topshiriq.** Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash hamda zamonaviy ta’lim jarayonini ko‘rib chiqish asosida ta’lim oluvchilarning rollar orqali namoyon bo‘lishini tartib bilan ifodalang.

- 1.guruhli faoliyatning ishtirokchisi
- 2.namuna bo‘yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so‘ng faoliyat egasi
- 3.o‘quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi
- 4.o‘z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o‘z-o‘zining faoliyati egasi
- 5.faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi+fikr egasi



**O‘qituvchining javobi.**



1. O‘quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi
2. Guruhli faoliyatning ishtirokchisi
3. Namuna bo‘yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so‘ng faoliyat egasi
4. Faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi+fikr egasi
5. O‘z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o‘z-o‘zining faoliyati egasi.

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT: TA’LIM MAQSADI VA MAZMUNI (2 soat)**

### **Reja:**

1. Pedagogik innovatsiyalarni ilmiy asoslash manbalari. Ta’lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar.
2. Innovatsion-pedagogik muammolarni hal etishning tayanch strategiyasi va pedagogik asarlar tavfsisi.
3. Innovatsion-pedagogik faoliyat metodlari: didaktik yondashuvlar

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixi chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish. Mamlakatimizda Uchinchi Rennesans haqida ma’lumotga ega bo‘lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish.

Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

**1-topshiriq.** O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixini “Blis-so‘rov” metodi asosida tushuntirib bering.

### “Blis-so‘rov” metodi


**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### Metodni amalga oshirish bosqichlari:

Tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixiga ulkan hissa qo‘sigan jadid-ma’rifatparvarlari: Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Ibrat, Siddiqiy; XX asr pedagoglari, didakt olimlar: Siddiq Rajabov, Malla Ochilov, Usmonali Nishonaliev va boshqa olimlarning qarashlarini tahlil qilish. Ta’limni tashkil etish yondashuvlari asosida didaktik jarayonni loyihalash metodlarini samarali qo‘llash, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun belgilangan mavzu yuzasidan tarqatilgan tarqatma materiallarni sinchiklab o‘rganishi, so‘ng, to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “Yakka baholash” ustuniga belgilash. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajarildi. Navbatdagi bosqichda moderator ishtiroychilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirishga undaydi. Bahs mobaynida tinglovchilar O‘zbekistonda oliy ta’lim didaktikasining rivojlanish tarixiga haqida kichik taqdimotlar orqali o‘z fikrlarini asoslab beradilar. Buning uchun manbalar va internet ma’lumotlaridan foydalanishlari tavsiya etiladi.

Texnologiya mobaynida turli interfaol metodlar va organayzerlardan foydalanish tavsiya etiladi.

**2-topshiriq.** Jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda to‘rt bo‘limga ajratgan. Ushbu bo‘limlarni qo‘yidagi texnologiyaga joylashtiring va har birini og‘zaki ravishda tushuntiring.



**3-topshiriq.** Jadidchilik milliy harakati namoyandalari qalamiga mansub asarlarni qo‘yidagi jadvalga yozing.

Jadid ma’rifatparvarlari	Asarlar nomi
Abdulla Avloniy	“Turkiy guliston yoxud axloq”
Mahmudxo‘ja Behbudiy	
Fitrat	

### O‘qituvchining javobi.


Jadid ma’rifatparvarlari	Asarlar nomi
Abdulla Avloniy	“Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Alifbedan so‘nggi o‘quv kitobi”
Mahmudxo‘ja Behbudiy	“Kitob ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi”
Fitrat	“Abudfayzxon”, “Arslon”, “Vose”” “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida”

### 3-AMALIY MASHG‘ULOT: TA’LIM (O‘QITISH) SHAKLLARI, METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI (4 soat)

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda oliy ta’lim didaktikasida zamonaviy o‘qitish konsepsiyalari haqida chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish. Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi

**1-topshiriq.** “Oliy ta’lim didaktikasida zamonaviy o‘qitish konsepsiyalari” mavzusida “Loyiha” texnologiyasi orqali taqdimot tayyorlang.

#### “Loyiha” texnologiyasi bosqichlari



Tinglovchi “Loyiha” texnologiyasi qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’minlashlari lozim.

### **2-topshiriq. Qo‘yidagi jadvalda keltirilgan nazariyalarga mos ta’riflarni toping.**

Nazariya nomi	Chalkash ma'lumotlar	To‘g‘ri ma'lumotlar
Pragmatizm	Ushbu nazariya katolik ilohiyotchisi Toma Akvinskiy sharafiga nomlangan bo‘lib, uni J.Mariten, U.Makgaken va M. Kazottilar ilgari surishgan	
Neopragmatizm	XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan ushbu nazariyani amerikalik olim D.Dyui muvaffaqiyatli ravishda tadbiq eta boshlagan	
Neopozitivizm	Ushbu nazariya tarafdorlari sifatida G.Marsel, U.Barret, D.Kneller kabi olimlarni e’tirof etish mumkin	
Ekzistensiyaalizm	Mazkur yo‘nalish Platon, Aristotel va Kantlarning axloqiy g‘oyalari asosida paydo bo‘lgan	
Neotomizm	Ushbu nazariya nisbatan keyinroq paydo bo‘lgan bo‘lib, uning tarafdori sifatida D.Uotsonni aytib o‘tish mumkin	
Bexiviorizm	Ushbu nazariya 1970 yillarda shakllana boshlagan, uning namoyandalari A.Maslou hamda A.Kombs.	

### **O‘qituvchining javobi.**

Nazariya nomi	Chalkash ma'lumotlar	To‘g‘ri ma'lumotlar

Pragmatizm	Ushbu nazariya katolik ilohiyotchisi Toma Akvinskiy sharafiga nomlangan bo‘lib, uni J.Mariten, U.Makgaken va M. Kazottilar ilgari surishgan	XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan ushbu nazariyani amerikalik olim D.Dyui muvaffaqiyatli ravishda tadbiq eta boshlagan
Neopragmatizm	XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan ushbu nazariyani amerikalik olim D.Dyui muvaffaqiyatli ravishda tadbiq eta boshlagan	Ushbu nazariya 1970 yillarda shakllana boshlagan, uning namoyandalari A.Maslou hamda A.Kombs.
Neopozitivizm	Ushbu nazariya tarafdorlari sifatida G.Marsel, U.Barret, D.Kneller kabi olimlarni e’tirof etish mumkin	Mazkur yo‘nalish Platon, Aristotel va Kantlarning axloqiy g‘oyalari asosida paydo bo‘lgan
Ekzistensiyaalizm	Mazkur yo‘nalish Platon, Aristotel va Kantlarning axloqiy g‘oyalari asosida paydo bo‘lgan	Ushbu nazariya tarafdorlari sifatida G.Marsel, U.Barret, D.Kneller kabi olimlarni e’tirof etish mumkin
Neotomizm	Ushbu nazariya nisbatan keyinroq paydo bo‘lgan bo‘lib, uning tarafdori sifatida D.Uotsonni aytib o‘tish mumkin	Ushbu nazariya katolik ilohiyotchisi Toma Akvinskiy sharafiga nomlangan bo‘lib, uni J.Mariten, U.Makgaken va M. Kazottilar ilgari surishgan
Bexiviorizm	Ushbu nazariya 1970 yillarda shakllana boshlagan, uning namoyandalari A.Maslou hamda A.Kombs.	Ushbu nazariya nisbatan keyinroq paydo bo‘lgan bo‘lib, uning tarafdori sifatida D.Uotsonni aytib o‘tish mumkin


**3-topshiriq.** “Oliy ta’lim didaktikasida zamonaviy o‘qitish konsepsiyalari” mavzusida kichik guruhlarga bo‘lining hamda raqib guruhlardan intervyu olishga tayyorgarlik ko‘ring (tinglovchilar ma’ruza mashg‘uloti jarayonida olgan bilimlariga asoslanadilar). Ushbu metod orqali tinglovchilarning egallagan bilimlari mustahkamlanib, og‘zaki nutq ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

#### **4-AMALIY MASHG‘ULOT: AXBOROT-TA’LIM MUHITIDAGI O‘QUV JARAYONI (2 SOAT)**

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda oliy ta’lim didaktikasining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari haqida chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

**1-topshiriq.** Oliy ta’lim didaktikasida mavjud muammolarni aniqlang va quyida ko‘rsatilgan texnologiyaga joylashtiring  
**“Qarorlar qabul qilish” texnologiyasi**



##### **O‘qituvchining javobi.**


**1-muammo:** Oliy ta’lim didaktikasining muammolaridan biri – o‘tkazilayotgan tadqiqotlarda tahsil oluvchilarning dinamikadagi ko‘rsatkichlarini taqqoslash shartlarni tenglashtirishga kafolat bermaydi.

**2-muammo.** Konseptual va ilmiy tavsiflarda yagona tartiblashtirilgan tizimning mavjud emasligi.

**3-muammo.** Zamonaviy oliy ta’lim didaktikasida o‘quv jarayonini o‘rganish uchun zaruriy metodikalar bilan ta’minlanmaganligi.


**4-muammo.** Oliy ta’limning zamonaviy didaktikasida ta’lim ishtirokchilarining axloqiy va o‘z-o‘zini anglash muammosi

## “Qarorlar qabul qilish” texnologiyasi



**2-topshiriq.** Quyida berilgan geometrik shakllar ichida tasvirlangan raqamlarni 20 soniya ichida qarab, eslab qoling, so'ng, ularga mos bo'lgan jadvalda keltirilgan kategoriyalarni toping

### Jadval



1. Paradigma-
2. Ta'lif-
3. Kasbiy professiogramma

#### **4. Shakllanish**

#### **5. Rivojlanish**

**3-topshiriq.** “**FSMU**” metodi asosida oliv ta’lim didaktikasi muammolari to‘g‘risida umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqaring, fikrlaringizni taqqoslang.

#### **“FSMU” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Jihozlar:** mashg‘ulot davomida ishslash uchun vatman, flomaster, markerlar, Elektron doska, “Elektron ko‘z”.

**4-topshiriq.** “Oliy ta’lim didaktikasining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari” mavzusida kichik esse yozing.

### **5-AMALIY MASHG‘ULOT: OLIY TA’LIM DIDEKTIKASINING ZAMONAVIY KATEGORIYaLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYaLARI (2 soat)**

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda oliv ta’lim didaktikasida innovatsion oqimlar va muammolar haqida chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

#### **1-topshiriq. Tinglovchilarga taqdim etilgan jadval.**

#### **Quyidagi muammolar bo‘yicha Insert jadvalini to‘ldiring**

Bu matn menga tanish “(+)”	Bu mantdagи ayrim jihatlar notanish (“-”)	Ushbu ayrim savol tug‘dirdi? (“?”)	Ushbu mantdagи abzaslar

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

## O‘qituvchining varianti

<b>Bu matn menga tanish ("+)</b>	<b>Bu mantdagi ayrim jihatlar notanish ("")</b>	<b>Ushbu mantdagi ayrim abzaslar savol tug‘dirdi? (“?”)</b>	<b>Ushbu ma’lumotlarni yod olish kerak (“!”)</b>


## 2-topshiriq. Blis-so‘rov asosidagi topshiriqlarga javob bering

Innovatsiya-  
 Novatsiya-  
 Innovatsion oqimlar-  
 Innovapsion muammolar-  
 Modernizatsiya –  
 Ta’lim tizimining modernizatsiyasi –  
 Ta’lim texnologiyasi –  
 Pedagogik texnologiya –  
 “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanishi bosqichlari-

**Javob:** Tushunchalar quyidagi ish qog‘ozi asosida to‘ldiriladi (namuna).


Новация	Инновация
Фаолиятнинг қисқа муддатли, яхлит тизим хусусиятига эга бўлиши ва фақатгина тизимдаги айрим элементларни ўзгартришга хизмат қилиши	Фаолиятнинг маълум концептуал ёндашув асосида амалга оширилиши ва натижасининг муайян тизимнинг ривожланишига ёки уни тубдан ўзгартришга хизмат қилиши

**3-topshiriq.** Kichik guruhlarga oliy ta’lim didaktikasida innovatsion oqimlar va muammolar ahamiyatini yorituvchi “Ikki sahifali kundalik”ni shakllantirish. Tinglovchilar uchun quyidagi ish qog‘ozи tavsiya etiladi:



### O‘qituvchining javobi.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozи:



### Ta’lim innovatsiyalari:

1. Pedagogik jarayonda qo’llaniladigan innovatsiyalar;
2. O’zlashtirilgan innovatsiyalar;
3. Modifikatsiyalangan innovatsiyalar;
4. Ta’lim tizimini boshqarishda qo’llaniladigan innovatsiyalar;
5. Modul innovatsiyalari;
6. Radikal innovatsiyalar;
7. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar
8. Kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
9. Tarmoq (lokal) innovatsiyalari;
10. Tizim innovatsiyalari.

**5-topshiriq.** Mavzuga oid aralash testlarni yechish.

**1.** Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi – bu ...

- a) ta'lim tizimining rivojlanishi;
- b) ta'lim tizimining shakllantirilishi;
- c) ta'lim tizimining holati;
- d) ta'lim tizimining modernizatsiyasi.

**2.** Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) o'zgartirish kiritish;
- b) qo'shimcha kiritish;
- c) yangilik kiritish;
- d) taklif kiritish.

**3.** "Innovatsion ta'lim" tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?

- a) 1919 yilda Berlinda;
- b) 1979 yilda Rimda;
- c) 1920 yilda Vashingtonda;
- d) 1995 yilda Moskvada.

**4.** Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'limgan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari. Ular ... ko'rinishlari.

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- c) innovatsiyaning;
- d) loyihalashning.

**5.** Ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi qanday nomlanadi?

- a) ta'lim metodikasi;
- b) ta'lim texnologiyasi;
- c) ta'lim paradigmasi;
- d) ta'lim metoologiyasi.

**6.** Ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining ushbu ta'rifi kim tomonidan berilgan?

- a) U.Nishonaliev;
- b) B.Farberman;
- c) YuNESKO;
- d) V.P.Bespalko.

**6-topshiriq.** Pedagogik texnologiya mezonlarini raqamlarini mos kataklarga qo'yib chiqing:

- 1) konseptuallik;
- 2) tizimlilik;
- 3) boshqaruvchanlik;
- 4) samaradorlik.

Таълимий технология самарали натижа ва таълим максадларига эришиш кафолатини таъминлайди	Таълим технологияси тизимнинг барча белгиларига эга, яъни: яхлитлик, тузилмавийлик, барча ташкил этувчиларнинг ўзаро боғликлigi ва уларнинг бир-бирига бўйсуниши, тизим ва мухитнинг ўзаро боғликлigi	Таълим технологияси фалсафий, психологик, дидактик ва таълимий максаднинг ижтимоий-педагогик асосланган аник илмий ғояларига асосланади	ТТ моҳияти – ишларни аниқ бажарилишида, яъни: бутун тугалланган таълим жараёнини аниқ педагогик ғоя остида дастлабки башоратлаш, лойиҳалаштириш ва режалаштиришида кўриш мумкин

**Javob:**

4	2	1	3
---	---	---	---

Mashg‘ulotning yakunlanishi.

Kichik guruuhlar va har bir tinglovchining mashg‘ulot jarayonidagi ishtiroki baholanadi. Ta’lim maqsadining natijalanganligi tahlil qilinadi.

## **6-AMALIY MASHG‘ULOT: O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM DIDAKTIKASINING RIVOJLANISH TARIXI (2-soat)**

**Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar:** tinglovchilarda didaktik tizimlar va ularning turlari haqida bilim hosil qildirish va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

**1- topshiriq.** Didaktik tizim xaqida keys bayoni.

Didaktik tizim deganda, ma’lum mezonlarga ko‘ra tanlangan yaxlit ta’lim tushuniladi. Didaktik tizimlar ekskursiyaning ichki yaxlitligi bilan ajralib turadi, maqsadlar, tashkiliy tamoyillar, mazmuni, o‘qitish shakllari va usullarining birligi bilan shakllanadi. Tuzilmalarning o‘ziga xos xususiyati bugungi

tadqiqotchilarga uchta tubdan farq qiladigan didaktik tizimni ajratib olishga imkon beradi:

- 1) I.F.Gerbartning didaktik tizimi (didaktika);
- 2) D. Devining didaktik tizimi;
- 3) Zamonaviy mukammal tizim.

**Keys topshirig'i:** Didaktik tizim deganda nima tushuniladi? Didaktik tizimlarni tashkil etadigan maqsadlar, tashkiliy tamoyillar, mazmuni, o'qitish shakllari va usullarining birligi haqida tushuncha bering. Tuzilmalarning o'ziga xos xususiyati haqida fikr bildiring.

### Keys topshirig'i:

Didaktik tizim yaratgan namoyondalar	Qarashlari

### O'qituvchining javobi:

Didaktik tizim yaratgan namoyondalar	Qarashlari
Ya.A. Komenskiy	Sinf-dars tizim yaratdi
I.F.Gerbart	<p>Nemis faylasufi va pedagogi I.F. Gerbart (1776-1841), ta'limning eng yuqori maqsadi yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxsni, axloqiy jihatdan kuchli xarakterli shaxsni shakllantirishdir. Uning fikricha, ta'lim quyidagi axloqiy g'oyalarga asoslangan bo'lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- shax intilishlarining yo'nalishini, faoliyat sohasini va salohiyatini belgilaydigan mukammallik; xayrixohlik, o'z irodasini boshqalarning irodasiga muvofiqlashtirish va bo'ysunishni ta'minlash;</li> <li>odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik va b.</li> </ul> <p>Didaktik tizimni yaratar ekan, zamonaviy psixologiyadan Gerbart ikkita asosiy g'oyaga tayandi: irsiy yoki orttirilgan ruhiy moyillik mavjud emas; barcha aqliy hayot g'oyalar asosida shakllanadi.</p>
Jon Dyui	Jon Dyuining didaktik tizimi jamiyat va ta'lim muassasasining izchil rivojlanishi bilan ziddiyatga kelgan gerbarchilarning avtoritar didaktik tizimiga qarshi turish maqsadida ishlab chiqilgandi. J. Dyui

	<p>tomonidan intizomiy choralar asosida tahlil oluvchilarga yuzaki ta’lim berish tanqidga uchradi. Shuningdek, pedagog hayot bilan bog‘liq bo‘limgan ta’limning eskirgani; tahlil oluvchilarga “tayyor” bilimlarni berish, yodlashga qaratilgan “passiv” usullardan foydalanish; talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari etarli darajada hisobga olinmaganligi; ta’lim mazmunini ijtimoiy ehtiyojlardan ajratish; talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga etarlicha e’tibor bermaslik jiddiy pedagogik xatolarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi.</p>
Zamonaviy tizimlar	<p>1.Amerikalik psixolog va pedagog Jerom Brukner tomonidan ishlab chiqilgan “kashfiyotlar orqali” o‘rganish kontseptsiyasi alohida e’tiborga loyiqidir. Unga muvofiq talabalar voqelikni o‘rganishlari, bilimlarni o‘zlarining kashfiyotlari orqali o‘zlashtirishlari kerak, bular barcha bilim kuchlarini ishga solishni talab qiladi va samarali fikrlashni rivojlantirishga nihoyatda samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, talabalar bundan oldin o‘zları uchun noma’lum bo‘lgan umumlashtirishlarni mustaqil ravishda shakllantirishlari, shuningdek ularni amaliy qo‘llash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari kerak.</p> <p>Amaliy pedagogik faoliyat asoslari bo‘lib hisoblanmish zamonaviy oliy ta’lim didaktikasi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:Uning uslubiy asosini bilimlar falsafasi (gnoseologiya), materializmning ob’ektiv qonunlari tashkil etadi, buning natijasida zamonaviy didaktika o‘quv jarayonini tahlil qilish va talqin qilishda bir tomonlama yondashuvdan chetlashdi.</p>

**Keys topshirig‘i.** Zamonaviy tizimlardagi didaktik maktablar yaratgan namoyondalar haqidagi ma’lumotlarni davom ettiring

Jerom Brukner	<p>1.Amerikalik psixolog va pedagog Jerom Brukner tomonidan ishlab chiqilgan “kashfiyotlar orqali” o‘rganish kontseptsiyasi alohida e’tiborga loyiqidir. Unga muvofiq talabalar voqelikni o‘rganishlari, bilimlarni o‘zlarining kashfiyotlari orqali o‘zlashtirishlari kerak, bular barcha bilim kuchlarini ishga solishni talab qiladi va samarali fikrlashni rivojlantirishga nihoyatda samarali ta’sir ko‘rsatadi.</p>
---------------	---

	<p>Shu bilan birga, talabalar bundan oldin o’zlari uchun noma’lum bo’lgan umumlashtirishlarni mustaqil ravishda shakllantirishlari, shuningdek ularni amaliy qo’llash ko’nikma va malakalariga ega bo’lishlari kerak.</p> <p>Amaliy pedagogik faoliyat asoslari bo’lib hisoblanmish zamonaviy oliy ta’lim didaktikasi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi: Uning uslubiy asosini bilimlar falsafasi (gnoseologiya), materializmning ob’ektiv qonunlari tashkil etadi, buning natijasida zamonaviy didaktika o’quv jarayonini tahlil qilish va talqin qilishda bir tomonlama yondashuvdan chetlashdi.</p>
A. Makarenko	

**Keys topshirig‘i.** Jadid-ma’rifatparvarlarining didaktik tizimlari haqidagi ma’lumotlarni jalvalga kriting

Ma’rifatparvarlar	Ma’rifatparvarlar tashkil qilgan tizim nomi	Qisqacha mazmuni
Abdulla Avloniy	Yangi usul maktabi	
Ibrat		
Siddiqiy		

### O‘qituvchining javobi.

Ma’rifatparvarlar	Ma’rifatparvarlar tashkil qilgan tizim nomi	Qisqacha mazmuni
Abdulla Avloniy	Yangi usul maktabi	
Ibrat		
Siddiqiy		

**2-topshiriq:** Quyidagi falsafiy tizimlarga doir ta’riflarni ularga tegishli tushunchalar bilan juftlang.

Nº	Ta’riflar	Nº	Tushunchalar
1	Ushbu falsafiy tizim amaliyotda insonga nima ko‘proq foyda bersa, o’shang ahamiyat berish zarur, degan g‘oyani ilgari suradi.	A	empirizm
2	Ushbu falsafiy tizimga ko‘ra, odamlarning bilimlari va harakatlarining asosini ong tashkil etadi. Ushbu falsafiy tizim vakillari sifatida Benedikt Spinoza, Gottfrid Leybnis, Rene Dekart hamda Geogr Hegel kabi olimlarni misol qilib keltirish mumkin.	B	texnokratizm
3	Ushbu tushuncha yaxlit gnoseologik konsepsiya sifatida XVII-XVIII asrlarda shakllangan bo‘lib, hissiy tajribani bilishning birdanbir manbai deb hisoblaydi. U ratsionalizmga qarama-qarshi ravishda tajribani, hissiy bilishni mutlaqlashtirish kabi omillarni birinchi darajaga qo‘yadi.	S	pragmatizm
4	Ushbu falsafiy tizim hokimiyat ilmiy va texnik mutaxassislar qo‘lida bo‘lishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi.	D	ratsionalizm

Javob	1	2	3	4
Javob				

O‘qituvchining javobi.

Javob	1	2	3	4
Javob	1-S	2-D	3-A	4-B

**3-topshiriq.** Ushbu jadvalga kasbiy didaktik tayyorgarlikning rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik funksiyalarga doir ta’riflarga mos javob yozing.

Ta’riflar	Javob
-----------	-------

Ushbu funksiya mohiyatan didaktik bilim ko'shikmalarini egallash, mutaxassisiga ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashishni amalgaloshirishga imkon beradigan kasbiy fikrlash, nutq, pedagogik qibiliyatlarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq.	
Bu funksiya pedagogika kurslari va xususiy metodlarini, shuningdek, maxsus kurslar va maxsus seminarlarni o'qiyotgan talabalarning kelgusi jarayoniga yo'naltiruvchi ta'siri bilan bog'liq. Funktsiyaning alohida roli pedagogik OTMlarning turli fakultetlarida o'quv jarayonini qiyosiy tahlil qilishda kuzatiladi.	

### O'qituvchining javobi.

Ta'riflar	Javob
Ushbu funksiya mohiyatan didaktik bilim ko'shikmalarini egallash, mutaxassisiga ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashishni amalgaloshirishga imkon beradigan kasbiy fikrlash, nutq, pedagogik qibiliyatlarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq.	Rivojlanish funksiyasi
Bu funksiya pedagogika kurslari va xususiy metodlarini, shuningdek, maxsus kurslar va maxsus seminarlarni o'qiyotgan talabalarning kelgusi jarayoniga yo'naltiruvchi ta'siri bilan bog'liq. Funktsiyaning alohida roli pedagogik OTMlarning turli fakultetlarida o'quv jarayonini qiyosiy tahlil qilishda kuzatiladi.	Muvofiqlashtiruvchi funksiya

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika.-T.:Fan va axborot texnologiyalari,2014.-210 b.
2. Azizzodjaeva N. Pedagogicheskaya texnologiya i pedagogicheskoe masterstvo. – T., 2005

3. Gagarin A. Innovatsionnaya didaktika vysisshey shkoly: teoriya, texnologii, metody: Elektronnoe uchebnoe posobie./  
<https://www.academia.edu/33328359/>
4. Korjuev A.V. Didaktika vysisshey shkoly.-M.:Sentyabr, 2019.-238s.
5. Muslimov N.A. Oliy ta'lim pedagogikasi.-T:Moliya, 2016.-320 b.
6. Popkov V.P., Korjuev A.V. Didaktika vysisshey shkoly.-M.:Mysl, 2020.-234 s.
7. Podlasiy V.P. Pedagogika. Kniga v 3-x chastyax/Didaktika,-M.:Logos, 2013.-468b.
8. Roziqov O. Didaktika.-T.:O'qituvchi, 2009.-180 b./<https://www.books.ru/books/didaktika>

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2011
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni – T., 2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 70 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori// -T.; Xalq so‘zi gaz. 2017. 79(6773)-son. -48 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori// -T.; O'zb.Res.Qonun hujjatlari to‘plami. 2017. 30-soni. 729-modda.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori// -T.; Qonun hujjatlari milliy ba'zasi. 2018. 1706-soni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari”to‘g‘risidagi PF-5349-son Farmoni// -T.; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2018. №1154-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 11 iyuldagagi PF-5763-son Farmoni// -T.; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2019.№3410-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 15 sentyabrdagi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash

to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori// -T.; O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy ba’zasi. 2015.242b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 15 fevraldagagi “2016-2030 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish” to‘g‘risidagi 111-F-sonli Farmoni// -T.; O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari milliy ba’zasi.2016.124b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “«Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagagi 343-som qaroriga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘sishchalar haqida”gi 3 - son Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2015 yil 15 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi 3-som qarori ijrosini ta’minalash to‘g‘risida”gi 12 – sonli buyrug‘i.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-som bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”, 1-ilovasi, 9bandi.

14. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-488 bet.

15. Mirziyoev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. //O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // - T., 2016

16. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.//Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza// – T., 2017

17. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi // - T., 2017

18. Axrorova Z. Jadid pedagogikasi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2006

19. Vvedenie v nauchnoe issledovanie po pedagogike. /Pod red. V.I. Juravleva – M., 1998

20. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. Uslubiy qo‘llanma. – T., 2001

21. Kuzmina N.V. Metodы issledovaniya pedagogicheskoy deyatelnosti. – L., 1996

22. Kurbanov Sh., Seytxalilov E. Natsionalnaya model i programma po podgotovke kadrov dostijenie i rezultat nezavisimosti Uzbekistana. – T., 1998

23. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchi O.Hasanboeva). – T., 1993
24. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T., 2010
25. G‘aybullaev N. va boshqalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T., 2005
26. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. (Tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil) 2 jildli. – T., 1995
27. Hasanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hasanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – T., 2006
28. Hasanboev J., To‘rakulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T., 2009
29. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – T., 2005

**Internet resurslari:**

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. http://tdpu.uz
3. http://pedagog.uz
4. <http://istedod.uz>
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. www.gov.uz

## V. GLOSSARIY

